Бибихоним ва Гавҳаршодбегимнинг қисқагина сўзлашувида психологик деталнинг гўзал намунасини кўришимиз мумкин. “Куш тилини қуш билади” деганлариdek, Гавҳаршодбегимнинг кундош балосидан чекаётган изтиробларини зукко Бибихоним дарҳол англайди ва бош олиб кетиш борасидаги кинояли-мажозий гаплари билан ўзининг шон-шавкатли ҳаёти ҳам ана шундай изтироб-у аламларга қоришиқ ҳолда кечаётганига ишора қиласди. Фаросатли Гавҳаршодбегим бу психологик “хужум”нинг мантиқини тўғри англайди, хато ўйлагани ва шу ҳолга кўнишга мажбур эканлигини тушуниб етади. Шу ўринда кундошлик изтироби билан боғлиқ психологик детал муаллифнинг воқеликка нисбатан нуқтаи назарини пинҳона акс эттиришга хизмат қиласди.

Маълумки, “инсон ва умр”, “инсон ва авлодлар” фалсафий диалектикасида дарахт тимсоли рамзий образ сифатида қадимдан қўлланиб келинади. Шу билан бирга она учун, у ким бўлишидан, қандай мавқега эга бўлишидан қатъий назар фарзанд биринчи ўринда туради, уни юрагининг энг тўрида ардоқлайди. Инчунун, фарзанди аржумандларидан бирин-кетин айрилган (бу вақтда ўғилларидан фақат Улуғбек Мирзогина ҳаёт эди) Гавҳаршодбегимнинг чукур изтироблари бисёр эди. Унинг ҳаётдаги ҳар бир нарсадан таскин излаши, ўғилларининг соғинчи юрагини ўрташи табиий ҳол. Шунинг учун ҳам қаерга бормасин, нимага қўл урмасин, фарзандлари билан боғлиқ хотиралар ўз домига тортади. Хусусан, боғдаги дарахтлар ҳам унга ўғли Бойсунғур Мирзони эслатади. Айтиш мумкинки, бундаги Бойсунғур Мирзодан қолган бояв ранг-баранг дарахтлар детали ёзувчининг бадиий-фалсафий ғоясини урғулашга, фарзандлар доғида куяётган Гавҳаршодбегимнинг оналик изтиробларини умумлаштиришга хизмат қиласди.

Тоғнинг шундоқ биқинида қад кўтарган икки ошиёни “Боғи хон” қароргоҳини Бойсунгур мирзо қурдирғанди. Шунинг учунми, Гавҳаршод бегим ҳам уни худди ўғлонидан қолган ёдгорликдай азиз тутар ва доимо унга талпинарди. Боғбон қўчатларни ўтқазар чоги Бойсунгур мирзоси ҳавас билан уларни ўз қўлларида тутиб турган лаҳзалар кўз олдига келарди. Кичик ва нозик новдадан бақувват, кўркам **даражатларга** айланган қулранг ва яшил арчаларга, сарвларга, санобарларга тол ва қарагай-у жийда баргли буталарга термулган кўйи, ўглининг **бармоқлари изини қўргандай қувониб кетар, япроқларига сингган нигоҳини туйганича, димоқларига урилаётган анвойи бўйларидан унинг нафасини ҳис этарди**.

Матнни ўқир эканмиз, дарахт сўзи атиги бир ўринда келади, аммо матннинг салмоқли маъно ва эмоционал юкини шу сўз ташийди, кичик бир заррада катта воқелик ўрин топади. Парчада биз таъкидлаган (**ўглининг бармоқлари изини қўргандай қувониб кетар, япроқларига сингган нигоҳини туйганича, димоқларига урилаётган анвойи бўйларидан унинг нафасини ҳис этарди**) учта холат деталининг ўзиёқ Гавҳаршодбегимнинг фарзанд доги ва фироқи тарихини яққол кўрсатиб беради, чунки танлаб олинган дарахт ва холат детали тасвирланаётган характер, манзара ва ҳиссиётларни ўзига хос тарзда бўрттириб беришга хизмат қиласи.

Севимли ёзувчимиз Абдулла Қаҳхор таъкидлаганлариdek, “баъзилар асарга чиройли детал киритишга ўч бўлади. Ўша детал чиройли бўлса бордир. Аммо асарнинг бош мақсадига хизмат қилмаганидан кейин тегирмончининг махсисига ўхшаб қолаверади, оёқни бир қоқсангиз ёпишган ун гарди тушиб кетади-ю, буришган маҳси кўриниб қолади. Детал пардоз эмас, ҳусн бўлиб асарни очиши керак”. Худди шунингдек, Шаҳодат Исахонова танлаган деталлар асарга ҳусн бўлиб, ёзувчи позициясининг энг ёрқин ўрнини белгилайди.

Адабиётлар:

1. Аксёнова А.А. Ресептивные аспекты визуального в литературе. // Новый филологический вестник 2020. №3 (54)
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: Ўзбекистон, 2002.
3. Ингарден Р. Исследования по эстетике / пер. с полского А. ермилова и Б. Федорова. М., 1962.
4. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр, 2010.

O'QUVCHILARNING LUG'AT BILAN ISHLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Jo'rayeva Shoxista Baxtiyorovna

Lingvistika (nemis tili)

2 kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarning lug'at bilan ishlash uchun zarur malakalari va lug'at bilan ishlash malakalarini shakllantirish uchun muayyan ish turlari, ularning imlo savodxonligini oshirish, so'z boyligini rivojlantirish uchun esa o'ziga xos maxsus mustaqil ish turlari to'g'risida qisqacha yoritilgan.

Lug'atlardan tez va to'g'ri foydalanish uchun o'quvchi zarur malakalarga ega bo'lishi lozim. Bu malakalardan eng muhimmi alfavit tartibini yaxshi bilishdir. Alfavitni yoddan bilmagan o'quvchi lug'atdan zarur so'zni tez topa olmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarning alfavit tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil kursni o'rghanish jarayonida bu borada muntazam ish olib borishga to'g'ri keladi. Lug'at bilan ishlash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishdir. Masalan, sininimik qatorlar hosil qilish zarur bo'lsa, imlo lug'atiga murojaat etilmaydi. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug'atga murojaat etish kerakligini bilgan bola, shubhasiz, undan samarali foydalana oladi. Lug'atlar turli tuman bo'lgani kabi, ular bilan ushslash usullari ham rang-barangdir. O'quvchilarning lug'at bilan ishlash malakalarini shakllantirish uchun muayyan ish turlari talab etilsa, ularning imlo savodxonligini oshirish uchun tamoman bohsqa, so'z boyligini rivojlantirish uchun esa o'ziga xos maxsus mustaqil ish turlaridan foydalanish talab qilinadi.

"Imlo lug'ati" bilan ishlash. "Imlo lug'ati" faqat o'quvchilarning imlo savodxonligini emas, balki so'z boyligini oshirishda ham muhim qo'llanmadir. O'zbek tilining barcha bo'limlarini o'rghanishda "Imlo lug'ati" dan unumli foydalanish kerak. Masalan, "Fonetika, orfoepiya, grafika va orfografiya" bo'limini o'rghanishda **a, i, u, o'** harflari ishtirok etgan so'zlar topish, **u – o', i – u, a – i** va h.k. juftlar bilan farqlanuvchi so'zlar tanlash, birinchi bo'g'inida **u, o'**, ikkinchi bo'g'inida **u** yoki **i** kelgan so'z juftlari (urush – urish, tushum - tushim va h.k.) ustida ishlash, **i-u** tovushlari (harflari)ning tushib qolishi, bu tovushlar tushib qolgan so'zlar ro'yxatini tuzish: **o-a** bilan farqlanuvchi so'z juftlar (ana – ona, ata – ota va h.k.)tanlash, **i-e** (e) bilan farqlanuvchi so'z juftlarini topish (ish – esh, bil – bel, tish – tesh kabi) ishlarini bajarishda "Imlo lug'ati" zarurdir.

“Ot” so‘z turkumini o‘rganishda otlarning ma’no guruhlariiga misollar tanlash, juft shaxs otlari, qo‘sib va ajratib yoziladigan qo‘shma otlar ro‘yxatini tuzish, “sifat +turdosh ot”, “son + turdosh ot”, “ot +fe’l + - ar” qolipli hosilalar ustida ishlash kabi mustaqil ishlar shu lug‘at yordamida bajariladi.

Xullas, “Imlo lug‘ati”dan ona tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda unumli foydalaniladi. U o‘quvchining doimiy yo‘ldoshi, darslik materilallarini to‘ldiruvchi zarur qo‘llanma sanaladi.

Entsiklopediya va izohli lug‘atlar bilan ishlash. Entsiklopediya ilm-fanning hamma sohalarini o‘z ichiga olagan yoki biror soha bo‘yicha keng, to‘liq ma’lumot beradigan lug‘at tarzidagi ilmiy to‘plam yoki qomusdir¹. O‘quvchi bu qomusdan barcha jumboqlarga javob topadi, istagan bir tushuncha haqida keng va atroflicha ma’lumot oladi. Ayniqsa, o‘quvchilar lug‘atini yangi tushunchalar bilan boyitishda, bu tushunchalarni ularning iste’moliga ko‘chirishda entsiklopediya lug‘atlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili mashg‘ulotlarida maktab o‘quvchilari uchun ixtisoslashtirilgan “U kim – bu nima” (ikki tomlik) entsiklopediyasidan unumli foydalanish mumkin. O‘quvchilar ushbu qomusdan foydalanib, ma’lum bir sohaga taalluqli tushunchalar ro‘yxatini tuzishlari, bu tushunchalarning ma’nosini aniqlashlari, tushuncha va so‘z orasidagi farqni bilib olishlari kerak.

Izohli lug‘atlar ona tili mashg‘ulotlarida tez-tez kerak bo‘ladigan qo‘llanmalardir. Ulardan unumli foydalanish o‘quvchilar nutqini ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh, uyadosh va qarama – qarshi ma’noli so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralar, frazeologik birikmalar bilan boyitish, ma’nosи har xil, shakli bir-biriga yaqin so‘zlar (paroimlar)ni farqlash, so‘zlarning ma’no nozikligi va qaysi uslubga xosligini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, lug‘atdan foydalangan holda ayni bir so‘zning ham turli ma’nolarini, ham ma’nodoshlarini, ham uyadoshlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Xullas, ona tili mashg‘ulotlarida lug‘atlardan foydalanish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga yoram beradi. Ayniqsa, ona tili o‘qitishning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, mashg‘ulotlarning foydalilik darajasini oshirishni lug‘atlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ona tili o‘qituvchisi lug‘atlardan foydalanishni hayotiy zaruriyat, ehtiyojga aylantirish, o‘quvchilarni ulardan foydalanish malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirilishi lozim.

O‘quvchilarning gap ustida ishlash va gap tuzish mahoratini kengaytirish. Gap – fikrning eng kichik bo‘lagi. O‘quvchi gap orqali kuzatgan maqsadi haqida xabar berishi, tinglovchidan biror voqeа – hodisani so‘rashi, his-hayajon va buyurish kabi mazmunni ifodalashi mumkin. Ma’lumki, ona tilining qurilishi, uning tayanch vositalari bolaning ongida shakllangan bo‘lib, u gapdan bemalol foydalanish ko‘nikmalariga egadir. Ona tilining grammatic qurilishidan tamomila bexabar kishi ham gapni Grammatik jihatdan to‘g‘ri qura oladi. Hech vaqt hali yozish va o‘qishni bilmagan bola ham “Men yaqinda maktabga boraman” gapini “Men yaqinda maktabni

boraman" shaklida qurmaydi. Maktab bolalarning gap qurish mahoratini kengaytiradi va takomillashtiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar gapning bosh bo‘laklari: ega va kesim gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq, buyruq va undov gaplar, gapning tizilishiga ko‘ra turlari: soda va qo‘shma gaplar kabi zaruriy materillar bilan tanishganlar va bu, shubhasiz, ularning gap qurish mahoratini kengaytiradi. Ona tilining izchil kursini (5-9sinflar) o‘rganishda o‘quvchilardagi mavjud malaka va ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Ular gap orqali fikrni ixcham, to‘g‘ri vat ta’sirchan ifodalashning turli yo‘llari, usullari bilan tanishadilar: gap qurishning nozik “sir”larini egallaydilar. Ona tili mashg‘ulotlarida gap ustida ishlashning yo‘llari jua rang-barangdir. Biz ularning ayrimlariga to‘xtatilib o‘tamiz: 1. **Gapni ixchamlashtirish.** Ixcham fikr – ta’sirchan fikrdir. Shuning uchun ona tili mashg‘ulotlariga qo‘yiladigan eng asosiy talablardan biri fikrni ixcham shaklda bayon qilishga o‘rgatishdir. O‘quvchi gap qurishda birorta ortiqcha so‘zni ishlatmasligi, maqsadni ofodalovchi so‘zno topib qo‘llashi, so‘z va so‘z birikmalarini to‘g‘ri aloqaga kiritish, gap bo‘laklarining oddiy va o‘zgargan tartibiga qat’iy amal qilishi lozim. 2. fikrni ixcham bayon qilish uchun o‘zbek tilining imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilarni berilgan gaplardan mazmunga salbiy ta’sir etmaydigan ma’lum bir so‘zni tushirib qoldirishga o‘rgatish gapni ixchamlashtirishga o‘rgatishning eng asosiy yo‘llaridan biridir. Masalan, 1)*Qurultoyga kelgan odamlarga juda katta hurmat ko‘rsatildi.* – *Qurultoyga kelganlarga juda katta hurmat ko‘rsatildi.* 2) *Men uyda o‘tiribman.* – *Me uydamon.* 3)*Ishlagan paytda xalaqit bermang.* – *Ishlaganda xalaqit bermang.* 4)*Birlashgan odam yovni qaytarar.* – *birlashgan yovni qaytarar.* 5) *Mehmon yaxshi odamga o‘xshaydi.* – *Mehmon yaxshiga o‘xshaydi* kabi. Ba’zan gapda ayrim so‘zlarni takror qo‘llash fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Masalan: 1) Yaxshi niyat – yorti davlat, yomon niyat – yorti mehnat (Maqol). 2) yaxshi so‘z jon ozig‘I, yomon so‘z qozig‘I (Maqol). 3) Oq it, qora it – baribir it (Matal). O‘quvchilarni zarur o‘rinlarda soz’ni takroriy qo‘llashga o‘rgatish ularning nutqi rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bollar takrorlanayotgan so‘zning qanday qo‘srimcha ma’no berayotganligini sharhlashlari, o‘zлari ham shunday gaplar tuzishni davom ettirishlari lozim. 2. **Gapni kengaytirish va toraytirish.** Gapni kengaytirishning eng qulay usuli kesimdan savol berish orqali uning egasi va ikkinchi darajali bo‘laklarini topib qo‘yishdir. Masalan, o‘quvchilarga “*Boraman*”, “*Uchishdi*”, “*Ko‘rganmisiz?*” singari bir bo‘lakli gaplarni berib, ularni avval ikki bo‘lakliga (*Men boraman. Qushlar uchishdi. Siz ko‘rganmisiz?* kabi), so‘ngra ko‘p bo‘lakliga (Qushlar qaerga?) uchishdi – Qushlar issiq o‘lkalarga uchishdi. – Qushlar (qachon?) issiq o‘lkalarga uchushdi. – Qushlar kuzda issiq o‘lkalarga uchishdi va h.k.) aylantirish topshiriladi. Ayni vaqtida soda yoyiq gaplarni yig‘iq gaplarga aylantirib, gapni toraytirish usulidan ham foydalanish mumkin. 3. **Gapning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirish.** Mustaqil ishning bu turidan 5-7 sinflarda ham, 8-9 sinflarda ham unumli foydalansa bo‘ladi. Fonetika, leksikologiya va morfologiyani o‘rganishda (5-7-sinflar) bu ish

ko‘proq berilgan gaplarda so‘zlarni ularning ma’nodoshlari va uyadoshlari bilan almashtirish orqali, sintaksisning izchil kursini o‘rganish jarayonida esa (8-9-sinflar) gap bilan ifodalangan, kesim, ega, to‘ldiruvchi, hol, aniqlovchilarni kengaytirilgan birikmalarga aylantirish, soda gaplardan qo‘shma gaplar va aksincha, qo‘shma gaplardan soda gaplar hosil qilish, ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga va o‘zlashtirma gaplarni ko‘chirma gaplarga aylantirish kabi usullar bilan amalgam oshiriladi. Masalan, “Kesim” mavzui o‘rganilayotganda kesimning gap bilan ifodalanishi, ularda ko‘rsatish olmoshlari, **-ki** bog‘lovchisining vazifasi, bu gaplarda, vergul (**-ki bo‘lsa**) va ikki nuqtaning (**-ki bo‘lmasa**) ishlatilishi holatlariga misollar keltiriladi va ayni vaqtda shunday gaplarni kengaytirilgan birikmalarga aylantirish topshiriladi (masalan: *Maqsadimiz shuki, bolalar bo‘sh vaqtlarida foydali ishlar bilan shug‘ullanishsin. Maqsadimiz: bolalar bo‘sh vaqtlarida foydali ishlar bilan shug‘ullanishsin. Bizning maqsadimiz – bolalarning bo‘sh vaqtida foydali ish bilan shug‘ullanishi. Bizning maqsadimiz bolalarning bo‘sh vaqtida foydali ish bilan shug‘ullanishidir kabi*). Bu singari amaliy ishlarning ahamiyati shundaki, o‘quvchi gapning mazmunini saqlagan holda, shaklini o‘zgartiradi, hamda bunday gaplarda tinish belgilarining qo‘yilishini puxta o‘zlashtirib oladi.

4. Matnni gaplarga ajratish. Mustaqil ishning bu turidan boshlang‘ich sinflarda va ayniqsa, 5-6-sinflarda ko‘proq foydalinishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchi tinish belgilar tushirib qoldirilgan matnni gaplarga ajratar ekan, har bir gapning tugallangan ohang va nisbiy tugal mazmunga ega ekanligini tushunib oladi. Bu esa gap haqidagi tasavvurlarni kengaytiribgina qolmay, balki gap qurish san’atini mukammalroq egallahsga ham yordam beradi.

5. Ikkita va undan ortiq soda gapni birlashtirib, bitta sodda yoki qo‘shma gap tuzish. Masalan, “Bahor erta keldi”, “Ekish barvaqt boshlandi” qabilidagi gaplarni berib, ulardan bir gap hosil qilishni topshirsa bo‘ladi. O‘quvchilar uni quyodagi usullar bilan birlashtirib, bir gapga aylantiradilar.

Bahor erta keldi, ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta keldi-yu, ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta keldi va ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta keldi, shuning uchun ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta kelgach, ekish barvaqt boshlandi. Bahor erta keldimi, ekish barvaqt boshlandi kabi. Mustaqil ishning bu turidan ona tilininng barcha sathlarini o‘rganishda unumli foydalansa bo‘ladi.

6. Gapni tahrir qilish. Mustaqil ishning bu turi gaplarda uchraydigan uslubiy xatolarning oldini olish va bartaraf etish maqsadida o‘tkaziladi. O‘quvchilar yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatar ekanlar, uslub jihatidan to‘g‘ri qurishning o‘ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar. Tahrirdan o‘quvchi ma’lum bir so‘z o‘rinda boshqa so‘zni qo‘llashi, gapning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirishi, uning ta’sirchanligini oshirish maqsadida ma’lum bir so‘zni qo‘shishi yoki qisqartirishi mumkin.

7. Gaplar tuzish. O‘quvchilarning mustaqillik darajasidan kelib chiqib, ular tuzadigan gaplarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- berilgan ma’lum bir so‘z, so‘z birikmalari, tasviriy ifoda va iboralardan ydalanib, gaplar tuzish;

- berilgan andazaga qarab gap tuzish;
- berilgan avzuli rasmdan foydalanib gap tuzish,
- o‘qituvchi yoki o‘uvchilar tavsiya etgan ma’lum bir mavzuga oid gaplar tuzish.

Xullas, ona tilining izchil kursini o‘rganish jarayonida gap ustida ishlash va gaplar tuzish barcha mashg‘ulotlarning muhim tarkibiy qismiga aylanmog‘I lozim. Shunday qilib, yuqorida tilga olingan ish usullari: gapni ixchamlashtirish va kengaytirish, mazmunni saqlagan holda shaklini o‘zgartirish, matnni gaplarga ajratish, ikki va undan ortiq soda gapni turli yo‘llar bilan birlashtirish, gapni tahrir qilish va takomillashtirish, maqsadni to‘g‘ri ifodalab, gap yaratish kabilar bolalarning nutqiy taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Yuqori sinflarda ana bir ish turi—ayni bir yozma ma’lumot, axborot (bayonnomma, maqola)ni og‘zaki (ma’ruza, chiqish) shaklda tayyorlashdir. O‘quvchilar og‘zaki o‘qib eshittirishga mo‘ljallangan matn gaplari qisqa, ixcham, lo‘nda bo‘lishiga, soda gaplar miqdorini ko‘paytirishga, gap tarkibida uzundan-uzoq murakkab sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi birikmalarini qo‘llamaslikka harakat qiladilar. Gap ustida ishlash og‘zaki va yozma nutqni o‘stirishning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lganligi sababli, bu ish uzlusiz ravishda – boshlang‘ich sinflardan tortib bitirish imtihonlariga tayyorlanish davrigacha amalgam oshirilmog‘i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akhrorova R.U. The linguistic image of the world and the gender aspect of the concept of “age” in French and Uzbek languages. Theoretical & Applied Science, – 2021. № 101. – P. 585-589.
2. Akhrorova R.U. The gender aspect of the concept of “age” in French and uzbek. International Journal of Advanced Research in ISSN: 2278-6236 Management and Social Sciences, – 2022. №1. – P. 31-39.
3. Akhrorova, R.U. (2020). Age nominations in linguistic research. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(4), 316-321.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий нашрёти” Давлат илмий нашрёти. – 680 б. 2006.
5. Содикова М. Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати. – Т.: Фан, 1993. – 259 б.

TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI HAMDA ULARNING O'ZIGA XOSLIGI

Soli Tolibovich Sa'diyev

Navoiy davlat pedagogika instituti

“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”

kafedrasи v/b dotsenti s.t.sadiyev@mail.ru

Annotatsiya: Bu maqolada rangtasvir, grafika, naqqoshlik kabilar tasviriy san’atning o’ziga xos turlaridir. Tasviriy san’atning bu turlari qadim-qadim zamonlardan beri insonlarning yaqin yo‘ldoshi bolib kelyapti. Chunki ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichlaridan biri bo‘lgan paleolit davrida ham, odamlar kundalik hayot turmush tarzini, g‘or toshlarida tasvirlashga uringanlar. Garchi bu tasvirlar juda oddiy chiziqlar majmuasidan iborat bo‘lgan bo‘lsada, keyingi yashash bosqichlarida, kuzatishlar natijasi tasviriy san’ataing mukammallashib borganligi haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: *San’ataing turlari, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, nafis san’at, qog’oz, karton, taxta, mato, devor yuzasi, dastgohli rangtasvir, mahobatli rangtasvir, dekorativ rangtasvir, miniatura (mo‘jaz) san’at.*

Аннотация: В данной статье живопись, графика, живопись являются специфическими видами изобразительного искусства. Эти виды изобразительного искусства были близкими спутниками человека с древних времен. Потому что еще в эпоху палеолита, являющуюся одной из первых стадий первобытнообщинного строя, люди пытались описывать свою повседневную жизнь на пещерных камнях. Хотя эти изображения были составлены из очень простого набора линий, на более поздних этапах жизни результаты наблюдений свидетельствуют о совершенствовании изобразительного искусства.

Ключевые слова: *Виды искусства, живопись, графика, скульптура, изобразительное искусство, бумага, картон, доска, ткань, поверхность стены, станковая живопись, величественная живопись, декоративная живопись, миниатюрная живопись лошадь.*

Abstract: In this article, painting, graphics, painting are specific types of visual arts. These types of visual arts have been a close companion of people since ancient times. Because even in the Paleolithic period, which is one of the first stages of the primitive community system, people tried to describe their everyday life on cave stones. Although these images were composed of a very simple set of lines, in the later stages of life, the results of observations indicate that the visual arts were perfected.

Key words: *Types of art, painting, graphics, sculpture, fine art, paper, cardboard, board, fabric, wall surface, easel painting, majestic painting, decorative painting, miniature painting horse.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Rangtasvir, grafika, naqqoshlik kabilalar tasviri san'atning o'ziga xos turlaridir. Tasviri san'atning bu turlari qadim-qadim zamonlardan beri insonlarning yaqin yo'ldoshi bolib kelyapti. Chunki ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichlaridan biri bo'lgan paleolit (e.a.35-40 ming yillik) davrida ham odamlar kundalik hayot turmush tarzini g'orlarning toshlarida tasvirlashga uringanlar. Garchi bu tasvirlar juda oddiy chiziqlar majmuasidan iborat bo'lgan bo'sada, keyingi yashash bosqichlarida, kuzatishlar natijasi tasviri san'ataing mukammallahib borganligi haqida ma'lumot beradi.

Tasviri san'ataing turlari ustida chuqurroq to'xtalib o'tsak; ular nafis san'at yoki rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kabilarga bo'linadi.

Nafis san'at - rangtasvir deb ham yuritiladi. «Nafis san'at - bu poeziya, qaysiki siz uni ko'rib turasiz, poeziya esa bu nafis san'at, siz uni eshitib turasiz» - degan edi Leonardo da Vinchi. U borliqda ikki o'lchamga ega bo'lib, eni va bo'yining ko'paytmasidan, ya'ni yuzada hosil bo'lgan tasvirdan iborat. Ayni paytda tasvir bir nuqtadan ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, suvbo'yoq, yelimli va moy bo'yoq, guash, tempera kabi bo'yoqlarda bajariladi. Qog'oz, karton, taxta, mato, devor yuzasi kabilar tasvirlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Nafis san'at o'z navbatida to'rtga bo'linadi:

1. Dastgohli rangtasvir.
2. Mahobatli rangtasvir.
3. Dekorativ rangtasvir.
4. Miniatura (Mo'jaz).

Dastgohli rangtasvir toifasiga kiruvchi asarlar uncha katta bo'lmay, uy ichlariga, galereya va ko'rgazmalarda namoyish qilish uchun bajariladi.

- Dastgohli rangtasvir o'z navbatida janr (mavzu)larga bo'linib, o'ntadan ortiq mavzuni tashkil qiladi.

Ular: portret, manzara, natyunnort, maishiy, tarixiy, batalik, mifologik, morenistik, tarixiy-inqilobi, animalistik, allegorik... janrlardir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ METHODS)

«Janr» - bu muallifning aniq bir mavzuga qilgan murojaatidir.

1. Portret - bu janrda musavvir ma'lum bir shaxsning obrazini yaratadi. Musavvir o'z mahorati bilan bo'yoqlar majmuasida, o'zi yaratayotgan obrazning tashqi qiyofasi orqali uning ichki kechinmalarini, ruhiy olamini ochib berishga intiladi. Ayni paytda portret ham murakkab janr bo'lib, u ham bir necha turlarga bo'linadi:

a) Psixologik (ruhiy) portret. Bu mavzuda musavvir oldida tasvirlanuvchining faqat tashqi qiyofasigina emas, balki ichki dunyosini va ruhiy kechinmalarini ko'rsata olish kabi muammo turadi. Masalan: A. Abdullayevning «K. Yashin» portreti.

b) Bayram portreti. Bu yerda esa tasvirlanuvchini hashamdar umuman bayram libosida ko'ramiz. Uning ko'krak nishonlari ham bo'lishi mumkin. To'y liboslari, harbiycha ko'krak nishonlari bilan ifodalanadi. Masalan: A. Shilov «Yu.A.Gagarin».

d) Guruhli portret. Bu yerda mavzu nomidan anglaniladiki, darhaqiqat, tasvirda bir necha kishining portreti tasvirlanadi. Masalan: Rembrandt «Doktor Tulpning anatomiya darsi».

e) Intim portret. Bu toifaga kiruvchi portret mavzusida oila intimi yoki ishq-muhabbat bilan bog'liq bo'lgan holatlar aks ettiriladi. Rembrandtning «Danaya» asari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

2. Tarixiy mavzuda chizilgan portretda ham musavvir aniq tarixiy voqealarga murojaat qilib, o'z oldiga qo'yilgan muammoni yechishga harakat qiladi. Masalan: M. Nabiyev «Amir Temur» portreti.

3. Natyurmort (jonsiz tabiat uyishmasidan tuzilgan majmua).

«Natura» - narsa, «jonsiz» degan so'zlarini anglatadi, bu so'z fransuz tilidan qabul qilingan. Bu mavzu juda keng qamrovli bo'lib, chizilgan tasvirlar, mevalar, gullar, geometrik jismlar, uy-ro'zg'or buyumlaridan, duradgorlik, ov anjomlaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin va hokazo. R. Ahmedov «Gullar». J. Sharden «San'at anjomlari».

4. Mifologik mavzu - «mif-afsona» degani, demak, chizilgan tasvir - afsonalar, ertak kabi xalq og'zaki ijodi namunalari asosida yaratilar ekan. V. Vasnetsov «Uch pahlavon».

5. Maishiy mavzu - kundalik turmush, hayot tarzi tasvirlanadi. Z. Inog'omov «Choyga».

6. Batal janri - jang manzaralarini tasvirlovchi mavzu. V. Vereshagin «Urush jarohatlari», A. Deyneka «Sevastopol mudofasi».

7. Manzara mavzusi - bu mavzuda tabiat go'zalligi tarannum etiladi (lirk va epik). O'. Tansiqboyev «Lissiqko'l oqshomi».

8. Morenistik janr - bu mavzuda asar yaratishda istagan musavvir dengizda bo'ladigan voqealarga murojaat etadi. Ayvazovskiy «To'qqizinchgi girdob».

9. Animalistik mavzu - hayvonotlar dunyosiga qilingan murojaat. A. Terentev «Bo'rilar».

10. Tarixiy mavzu.

11. Tarixiy-inqilobiy mavzu. M.Nabiyev «Spitamen qo‘zg‘oloni».
12. Allegorik mavzu – ramzning bir ko‘rinishi bo‘lib, voqeal-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so‘z (obraz)ni qo‘llash, ya’ni adabiy asarda o‘quvchiga noaniq bo‘lgan tushunchani ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lgan, narsalarga xos belgilarn bilan ifodalash usulidir. S. Botichelli «Veneraning tug‘ilishi».

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

GRAFIKA

Tasviriy san’atning muhim turlaridan biri grafika san’ati sanaladi.

«Grafika» - so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, «grafiyus»«chizaman» degan ma’noni anglatadi. U oq va qora ranglar san’ati bo‘lib, o‘z navbatida rangtasvir kabi bir necha bo‘limlarga bo‘linadi. Tasvirda asosiy o‘rinni chiziqlar, shtrixlar va nuqtalar egallaydi. Ish qurollari: qalam, qog‘oz, pastel, rangli qalamlar, karton, tush, ko‘mir. Grafika ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, dastgohli va (prikladnoy) ijodiy- amaliy mavzularni tashkil etadi.

Shu boisdan ham taniqli rassom Mikelandjelo – «Qalamtasvir - shakl yaratish san’ati bo‘lib, rangtasvir, haykaltaroshlik va me’morchilikning oliy nuqtasi va barcha fanlarning ildizi – negizidir», - deb ko‘rsatgan edi. Dastgohli grafikada asosan o‘yib ishlanadi. Grafika o‘zi esa yana ikkiga bo‘linadi, bular sanoat grafikasi va illustratsiyani tashkil etadi. Ashida san’atning bu turi ko‘p nusxa olish uchun mo‘ljallangan. Sanoat grafikasi tarkibiga gazlamalarga gul solish misol bo‘la oladi. Illustratsiya bo‘limi esa o‘z ichiga kitob, plakat grafikasini qabul qiladi. Kitob grafikasi kitobning muqovasi va ichki betlarini bezash bilan kifoyalanmay, balki bu rasmlar orqali asarning ichki mazmuni ochib beriladi.

Gralika o‘z navbatida turkum (seriya)larga ham bo‘linadi. Bu turkum gravyuralardan iborat bo‘lib, (gravyura-lotincha «o‘yib ishlayman» degan ma’noni anglatadi) ksilografiya, litografiya, linogravylarini tashkil etadi va nusxalar ko‘paytirish uchun ishlatiladi. Bularni quyidagicha izohlash mumkin:

- a) litografiya (lit-«quymoq») metall yoki toshda o‘yib ishslash.
- b) linogravura-linoleum (rezina, sifatli yumshoq material)ga o‘yib ishslash.
- d) Ksilografiva-yog‘ochga o‘yib ishslash.

Yuqorida qayd qilingan grafikaning uch turidan ham ko‘plab nusxalar olish mumkin.

PLAKAT

Plakat oq va qora ranglar qarama-qarshiligi hosilasidan iborat bo‘lib, «chaqiriq», chorlamoq ma’nosini anglatadi. Inqilobgacha (1917-y) bo‘lgan davrda plakatlar faqat

savdo reklamasi va teatr afishalari uchun ishlatilgan. Asta-sekin kirib kelayotgan plakat san'ati ham jurnallarda satirik holatda yuzaga kela boshlagan edi. Fikrimizga teskari tarzda 1918-yil, Umum Ittifoq markaziy ijroqo'mi nashriyoti bilan birinchi bor 4-6 bo'yodan iborat bo'lgan plakat yuzaga keldi. Birinchi bor L.V. Apsit nomli rassom tomonidan «1-may» nomli plakat yuzaga keltirilib, unda ko'p millatli xalq tasvirlangan. Tasvirda bosh planda rus ishchisi va qizil askar egallagan, ular yer shari uzra yozilgan shiorni ko'rsatishyapti. Shiorda «Butun dunyo proletari, birlashingiz» - degan yozuv yozilgan edi.

Plakatning navbatdagi bosqichlari rus rassomi D.Moor ijodida «Sen ko'ngilli bo'lib yozildingmi?», «Yordam ber» kabi nomlar bilan siyosiy mazmunda plakat turlari yuzaga kela boshladi. Hozirgi paytda har bir sohaga (talim, ekologiya, iqtisod, sog'liqni saqlash...) ta'luproq plakat turlari va boshqalar mavjud.

QALAMTASVIR

Qalamtasvir - bu grafikaning ajralmas bir bo'lagini tashkil etadi. Har qanday tasvirning asosini qalamtasvir tashkil etadi. Bu so'z mazmuni shunday tushuniladi: agar odam gavdasini uning suyaklari ushlab tursa, yoki qurilayotgan binoning to'g'ri, ixcham bo'lishda karkaslar asosiy rolni o'ynasa, har qandav tasvirlanadigan suratda yoki haykaltaroshlik ham, hatto xalq amaliy san'atida ham bajariladigan ishlarning dastlabki izlanishlar mahsuli rasmdan iborat bo'ladi. Aslida qalamtasvir oq va qora tuslar zaminida yuzaga kelib ular qoramalar, xomaki suratlar, o'quv va akademik hamda ijodiy tasvirlardan iborat bo'ladi. Qalamtasvirda ham rangtasvirdagi kabi barcha janrlarda ijod qilish mumkin. Portret, manzara, mifalogiya, natyurmort va boshqalar...

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

QORALAMALAR

Qalamtasvir 10-15 daqiqali qisqa vaqtli tasvirdan iborat o'quv va akademik rasmlar maxsus rejalar asosida olib boriladi. Bu o'quv jarayoni bilan bog'liq. Ijodiy tasvir ancha murakkab soha bo'lib, bu yerda ijodkor o'quv jarayonida olgan bilimlarini har tomonlama tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Misol: Musavvir portret ustida ishlar ekan, tasvirlanuvchining faqat tashqi qiyofasigina emas, balki uning yuz, qo'l va kiyimlari orqali qanday shaxs ekanligi, kasbi, jamiyatga bo'lgan munosabatini ko'rsatishga intiladi.

HAYKALTAROSHLIK

Haykaltaroshlik uch o'lchamdan iborat bo'lib, hajmni tashkil etadi (balandlik, eni, uzunlik). Haykaltaroshlik asarlari turli tomondan ko'rishga mo'ljallangan. Bu soha uchun tosh, metall, bronza, yog'och, loy va shu kabi materiallar zarur. Tasviriy

san'atning bu turi qadim zamonlardan buyon mavjudkim, bu tarixdan ma'lum. Hatto qadimgi antik dunyo san'atini ham haykaltaroshlik asarlarisiz tasavvur etish qiyin. Arxeologik qazilmalar natijasi fikrimizning isbotidir. Yoxud Uyg'onish davri haykaltaroshligiga bir nazar solsak, ajoyib va mukammal ko'rinishga ega bo'lgan haykaltaroshlik asarlarini ko'rib hayratlanmashikning iloji yo'q.

Misol: bu borada Donatello, Mikelanjeloning «David» nomli haykallarini kuzatish foydali. Umuman haykaltaroshlikda ham muallif badiiy obrazlar orqali qattiq yoki yumshoq materiallardan jonli siymoni yaratadi. Bunday tarzda yaratilgan obrazlar o'zining maqsadini to'la mujassam etmog'i lozim. Ular me'morchilik inshootlarida, maydonlarida, muzey, tarixiy joylarda va hatto qabristonlarda ham o'rnatiladi.

Haykaltaroshlik asarlari, agar me'morchilik bilan bog'liq bo'lsa, unda uning mayda hajmga ega bo'lgan barelyef va gorelyef turlari qabul qilinadi. Barelyefda hajmning 1/3 qismi, gorelyefda 2/3 qismi yuzaga nisbatan bo'rtib turadi. Havkaltaroshlikning bunday usullari binoning tashqi fasad va fronttonlarida, deraza, eshik atroflarida, binoning ichki qismlaridagi karniz, potolok (shift)dagi yoritgichlari atrofida o'z aksini topadi.

Haykaltaroshlikda inson qomati to'liq qomatda bajarilsa - statuya, ko'krak yoki bosh qismigacha bajarilsa-buyust, mabodo ularning bir nechta bir joyda (bino oldida, maydonda) to'planib, tartibli joylashsa - alleya deb yuritiladi.

ME'MORCHILIK

Me'morchilik hajm va bo'shliq san'ati bo'lib, binolarning qurilishi tiplariga qarab bir necha turlarga bo'linadi: me'morchilik inshootlari nima maqsadlarga mo'ljallab qurilgan bo'lsa, o'sha vazifani o'taydi.

Turar-joy binolari, ma'muriy (boshqaruv, idora) binolari.

Diniy inshootlar tarkibiga cherkov, monastr, maschit, madrasa, ibodatxonalar kiradi. Bu inshootlardan tashqari qo'rg'on, saroy, mehmonxonalar, karvonsaroylar, kutubxonalar, dala hovlilari, o'yingohlar, sayrgohlar, teatrlar, o'quv inshootlari, qabriston, maqbaralar, minoralar kabi qurilish inshootlari ham me'morchilik tarkibiga kiradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Tarixdan ma'lumki: *Tasviriy san'atning muhim turlaridan biri grafika san'ati sanaladi. Barcha tur va janrlar mana shu sa'at turini asos qilib oladi.* Qalam chizgini mukammal egallagan inson borki u uchun boshqa barcha turlarga ijod qilish va uni egallaheng yengil kechadi. Jumladan me'morchilik ham insonning kundalik ehtiyoji bo'lganligi sababli u juda katta hashamatli va nafis inshootlaming qurilish xususiyatlari bilan bog'liq. Uning yuqorida aytilgan qurilish tiplari aql, bilim va qo'l mehnati bilan

yuzaga keltirilgan. Misr piramidalari, Afina teatri, Avliyo Sofiya sobori, Buxoro, Samarqand, Xiva me'morchiligi kabi inshootlarni bunga misol qilib ko'rsatish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. С.Т.Саъдиев З.С.Очилов XLIII Международная научно-практическая конференция “Международное научное обозрение проблем и перспектив современной науки и образования”. “По тему Факторы, влияющие на качество музыкального образования”. 2018 г 25-26 Март (Америка Бостон). <https://creativecommons.org/licenses/by-sa/4.0/deed.en>
2. С.Т.Саъдиев ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal “Тасвирлашнинг асосий қонун – қоидалари” Vol. 11, Issue 5, May 2021 saarjournal@gmail.com
3. С.Т.Саъдиев “Ўрта асрлар шарқ миниатюра мактабларининг методлари” «Science and innovation» халқаро илмий журнали (ISSN: 2181-3337) 2022-йил 2-сони. <http://scientists.uz/view.php?id=178> <http://scientists.uz/uploads/202202/061.pdf>
4. С.Т.Саъдиев «Science and innovation» халқаро илмий журнали N EDUCATIONAL ACTIVITIES “Халқ амалий санъатида ёғоч ўймакорлиги-нинг ўзига хос аҳамияти” (ISSN: 2181-3523) 2022-yil 5-сони. https://t.me/science_innovations
5. Qodirxўjaev P. T. Badiiy bezak san'ati. -T: "Iqtisod moliya" 2007.
6. Xolmatov B.Q. Kompozisiya. -T: "Iqtisod-moliya", 2007.
7. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi.-T: Cho'lon, 1999.
8. S. Bo'latov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent, Mehnat, 1994 yil.

INTERNET SAYTLARI

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. https://arm.tdpushf.uz/kitoblar/fayl_1444_20210810.pdf

ПРЕЗЕНТАЦИЯ ПАССИВНЫХ КОНСТРУКЦИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ВЕРБАЛЬНЫХ ПРАВИЛ-ИНСТРУКЦИЙ В СОЧЕТАНИИ СО СХЕМАТИЧЕСКИМИ ПРАВИЛАМИ

Бегалиев Шахабудин Юлдашевич

К.п.н., доцент Андижанского государственного института иностранных языков, Узбекистан

shahbeg1905@gmail.com

Аннотация: Основная цель обучение иностранных языков в неязыковых факультетах высших учебных заведениях Узбекистана является чтения текстов по специальности на английском языке и извлекать необходимой информации, а также вести устной беседу по своей будущей специальности. Статья посвящена обучения студентов-узбеков математических факультетов грамматическим явлениям английского языка при чтении текстов. Предлагается обучения грамматическим явлениям на основе вербальной правил-инструкции в сочетании со схематическими правилами. Теоретически обосновывается использования схематический правил в обучении рецептивным грамматическим явлениям английского языка, определены такие принципы как обобщенность, наглядность, конкретизированность, динамичность, репрезентативность, простота.

Ключевые слова: презентации, пассивная конструкция, правила-инструкций, схема, сочетании правил-инструкции со схемой, вербальная, обобщенность, наглядность, конкретизированность, динамичность, репрезентативность, простота, сознательность, гибкость, символ, схематизация, компонент, вспомогательный глагол.

PRESENTATION ENGLISH PASSIVE CONSTRUCTIONS ON THE BASES OF VERBAL RULE INSTRUCTIONS IN COMBINATION SCHEME RULES

Shahabudin Yuldashevich Begaliyev

Candidate of Pedagogy Associate Professor of Andijan State Foreign Languages Institute, Uzbekistan
shahbeg1905@gmail.com

Annotation: The main aim of teaching foreign languages in all institutions in the Republic of Uzbekistan and at the faculties whose major is not a foreign language is teaching so that they can get information which they need by reading texts in English concerning their profession and can communicate orally in English according to their specialty. The article is dedicated to the teaching English receptive grammar while reading math authentic literature students of mathematical faculties of universities and institutes. It is proposed teaching English grammar by verbal rule-instructions in combination schemes. There were given theoretical reasons of using schemes in teaching English receptive grammar phenomenon and were defined such principles as generalization, visualization, concretization, dynamicity, representability, simplicity.

Key words: presentation, passive construction; verbal rule-instructions in combination schemes, grammatical skills; principles; mathematical text; exercise; rule-instruction, generalization, visualization, concretization, dynamicity, representability, simplicity, consciousness, flexibility, symbol, scheme, component, auxiliary verb

ВВЕДЕНИЕ

Целью обучения английского языка в неязыковых факультетах высших учебных заведениях Узбекистана является чтения текстов по специальности на английском языке и извлекать необходимой информации, а также вести устной беседу по своей будущей специальности. В данной работе рассматривается обучения студентов-узбеков математических факультетов пассивным конструкциям (далее ПК) английского языка при чтении текстов. Предлагается обучения грамматическим явлениям на основе вербальной правил-инструкции в сочетании со схематическими правилами. Теоретически обосновывается использования схематический правил в обучении рецептивным грамматическим явлениям английского языка, определены такие принципы как обобщенность, наглядность, конкретизированность, динамичность, репрезентативность, простота.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Рассмотрев один из вариантов презентации нового грамматического материала с помощью правил-инструкций [см. Бегалиев 2022, с.288-290, 2022 с.134-137], остановимся на другом варианте презентации, то есть сочетании правил-инструкции со схемой.

Схема при обучении иностранным языкам значительно облегчает процесс обобщения грамматических отношений и способна выступить в качестве экономного заместителя словесных структур [Сухобская, 1988, с.273-274].

Схематизация как процесс является одним из основных способов грамматической абстракции, и поэтому схема должна стать для учащихся орудием действия, материализованной формой грамматического абстрагирования. Учащийся с помощью схемы не только симultanно охватить образ явления, но и строить его по схеме, извлечь схему из конкретного грамматического явления. Схематизация должна стать одним из способов действий, учащихся с верbalным материалом.

Все выше сказанное побудило нас к разработке методики презентации пассивных конструкции (далее ПК) английского языка, предполагающей сочетание правил-инструкций со схемой.

Несмотря на то, что на эффективность использования схем при формировании навыков и развития умений неоднократно указывалось психологами [Сухобская 1988, с.273-274, Тихонов 1979, с.75-80, Айдарова с.55-72 и др.], тем не менее теоретические и практические вопросы применения схемы в методике обучения иностранным языкам мало исследованы. Имеющиеся работы носят разрозненный характер. Наиболее полно требования к схемам как вид учебного правила сформулированы в работе Л.Н.Малишевской [1973,с.34-43]. Она систематизировала следующие требования к схематизированному учебному правилу: 1) обобщенность, 2) наглядность, 3) конкретизированность, 4) динамичность, 5)репрезентативность. В качестве дополнительного требования, автор выдвигает функциональную направленность схемы. Однако данное требование релевантно для обучения репродуктивному грамматическому материалу. При формировании рецептивных навыков, в частности, грамматических навыков чтения, учащийся отталкивается от формы, которая уже употреблена в письменной речи в ее соответствующей функции.

На наш взгляд, еще одним важнейшим требованием к схеме должна быть ее простота. Если схемы будут сложными, то они не ускорят, а наоборот замедлят формирование грамматических навыков, так как обучающиеся могут запутаться в сложных и многообразных условных обозначениях.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ И ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Рассмотрим отдельно каждое требование и его воплощение в предлагаемых нами учебных схемах для усвоения ПК.

Под **обобщенностью** схемы понимается ее способность представить существенные и наиболее характерные признаки определенного грамматического явления средствами знаковой системы.

Наглядность – это способность схемы выступать в качестве зрительной опоры для абстрагирования, что обеспечивает наглядную чувственную основу мышления, а также дает обучающимся возможность более прочно усвоить новую структуру.

Для обучения студентов-узбеков пониманию английских предложений с ПК следует обозначить определенными символами первый и второй обязательные компоненты (подлежащее и сказуемое), а также третий, факультативный компонент (косвенное дополнение) с предшествующим ему предлогом. Остальные второстепенные члены предложения (если они имеются), не входящие в ПК, при схематизации можно обозначить многоточием. Такой способ схематизации наглядно представляет существенные и наиболее характерные признаки грамматического явления.

Конкретизированность вытекает из обобщенности и наглядности схемы, так как обобщенность достигается путем абстрагирования от конкретных объектов, от их несущественных черт. С целью облегчения процесса формирования отвлеченного обобщения следует конкретизировать схему определенными примерами.

Под **динамичностью** схемы понимается ее способность отображать данное грамматическое явление во взаимодействии с другими.

Качества конкретизированности и динамики в нашем случае воплощаются в том, что каждый символ конкретно отражает определенный компонент ПК. Использование многоточия для обозначения второстепенных членов предложений, не входящих в ПК, показывает взаимодействие ПК с другими грамматическими явлениями.

Репрезентативность схемы – определенная внешняя организация схемы в соответствии с психофизиологическими особенностями зрительного восприятия, то есть использование цветовых сигналов и знаковой индикации: буквы, цифры, стрелки, толщина обводки и т.п. Применительно к обучению ПК это требование выражается в обозначении компонентов ПК математическими фигурами: прямоугольниками, трапециями, различными треугольниками. Такая форма презентации выбрана в соответствии с основной специальностью студентов-математиков.




Принимая во внимание требование **простоты**, следует быть осторожным при использовании цвета и знаковой индикации. Из психологии известно, что применение слишком многих цветов и знаковых индикаций отвлекает внимание. Поэтому нами использовалось ограниченное количество строгих

математических символов, а цветом (красным) выделялись существенные признаки ПК, когда они впервые предъявлялись в микротексте.

РЕЗУЛЬТАТЫ

С учетом проанализированных требований мы составили учебные схемы для обучения студентов-узбеков ПК английского языка с целью чтения литературы по специальности. При составлении учебных схем для распознавания ПК английского языка, его компонентов и способов передачи на узбекский язык, использовался следующий минимальный набор условных обозначений:

Символ  обозначает первый компонент ПК английского языка.

Символ  обозначает второй компонент, где первая часть  указывает на вспомогательный глагол *be*, вторая на Ш форму смыслового глагола. В ПК узбекского языка второй компонент обозначен символом  , где скобки указывают на аффикс, который образует страдательный залог.

Символ   обозначает третий компонент, где маленький равносторонний треугольник указывает на предлог *by* в английском или на послелоги « билан », « тамонидан », « тарафидан » - в узбекском, а большой треугольник – на аганс.

Символ ...  указывает на вспомогательный глагол *will*

Символ ...  указывает на вспомогательный глагол *have\has*

Символ ...  указывает на модальный глагол *can, may, must, have to, should*.

Римская цифра Ш указывает на третью форму смыслового глагола.

Многоточие указывает на второстепенные члены предложения, которые не входят в состав ПК.

Кроме перечисленных символов используются также знаковые индикации – знак равенства, плюс, вопросительный знак и стрелка, указывающая направление действие. Полагаем, что их значения не нуждаются в разъяснении.

Ознакомление со схемами начинается при предъявлении нового грамматического явления в микротексте. Сообщая первую обучающую инструкцию правила-инструкции №1, преподаватель выписывает из микротекста

предложения с ПК, подчеркивая его второй компонент – глагол в страдательном залоге:

The value of a fraction is not changed

... the numerator and denominator are multiplied

This is shown

It is called

На основании данных примеров преподаватель вместе со студентами выводит «формулу» второго компонента ПК:

is \ are + III = Present Indefinite Passive

Затем преподаватель сообщает последующие обучающие инструкции и при этом вводит символы, обозначающие первый, второй и третий компоненты ПК.

При формулировании обучающих инструкций «д», «е» - об отрицательной и вопросительной форме предложений с ПК - также используются схемы:

The value of a fraction is not changed



Are the numerator and denominator multiplied by the same number?



Следует подчеркнуть, что использование схемы имеет особо важное значение для объяснения порядка перевода компонентов ПК с английского на узбекский языки, так как порядок следования компонентов ПК в английском и узбекском языках не одинаков. Применение учебной схемы помогает в преодолении этой специфической трудности в обучении ПК английского языка студентов-узбеков.

ВЫВОДЫ

Таким образом, рассмотрев два варианта презентации ПК английского языка – на основе только вербальных правил-инструкций [Бегалиев 2022, с.288-290, 2022 с.134-137] и на основе сочетания вербальных правил-инструкций с учебными схемами можно сделать предположение о преимуществах второго варианта для обучения понимания ПК английского языка студентов математиков, для которых прочтение схем является привычным умственным

действием и облегчает процесс усвоения материала. Однако, безусловно, данное предположение следует экспериментально проверить.

В процессе презентации ПК происходит становление первого этапа рецептивного грамматического навыка, начинают формироваться качества навыка как «сознательность» и «гибкость».

ССЫЛКИ

1. Begaliyev Sh. Y. Teaching English Grammar Phenomena on the Basis of Verbal Instruction Rules. - Texas Journal of Multidisciplinary Studies ISSN NO: 2770-0003 <https://zienjournals.com> Date of Publication: 30-03-2022. A Bi-Monthly, Peer Reviewed International Journal [288] Volume 6. 288- 290 pp.
2. Begaliyev Sh. Y. Teaching English grammar by verbal instruction rules. - NOVATEUR PUBLICATIONS Journal NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 8, ISSUE 3, Mar. -2022. 134-137 pp.
3. Малишевской Л.Н. Схема как один из видов учебного правила. – Иностр. яз. в школе, 1973, № 6, с. 34-43.
4. Сухобская Г.С. О перекодировании информации в процессе усвоения. – В кн.: Материалы III Всесоюзного съезда общества психологов: Возрастная и педагогическая психология. М., 1988, т.2, с.273-274.
5. Тихонова А.Ф. Роль оперирования со схемой при усвоении пунктуационных правил. - Вопросы психологии, 1979, № 4, с.75-80.

ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ФИЗИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ С ДЕТЬМИ МЛАДШЕГО И ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И СПОСОБЫ ИХ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ

Ганиева Мавлудаҳон Абдумуҳтор кизи

магистр 2 ступени, факультет Теории и методики физического воспитания и спортивной подготовки, Андижанский государственный педагогический институт

E-mail: malyaganiyeva@gmail.com

Тургунтошев Мухлисбек Илхомжон оғли

магистр 2 ступени, факультет Теории и методики физического воспитания и спортивной подготовки, Андижанский государственный педагогический институт

E-mail: mukhlisbek97@mail.ru

Мирзакаримов Юлдашбой Абдинабиевич

Доцент, Кафедра теории и методики физической культуры Андижанского государственного университета

E-mail: mukhlisbek97@mail.ru

Аннотация. В данной статье рассматриваются аспекты достижения результата в процессе раскрытия организационно-педагогических основ достижения высокой эффективности в физическом воспитании студентов высшего учебного заведения. При этом представлены результаты, полученные в ходе исследования.

Ключевые слова: физическая культура, физическое воспитание, физические качества, физические упражнения, средства, метод

FORMS OF ORGANIZING PHYSICAL ACTIVITIES WITH CHILDREN OF PRIMARY AND SCHOOL AGE AND WAYS OF THEIR IMPLEMENTATION

Ganieva Mavludakhon Abdumukhtor qizi

2nd stage master's degree, Faculty of Theory and Methodology of Physical Education and Sports Training, Andijan State Pedagogical Institute

E-mail: malyaganiyeva@gmail.com

Turguntoshev Mukhlisbek Ilhomjon ogli

2nd stage master's degree, Faculty of Theory and Methodology of Physical Education and Sports Training, Andijan State Pedagogical Institute

E-mail: mukhlisbek97@mail.ru

Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabievich

Docent, Department of Theory and Methods of Physical Culture,

Andijan State University

E-mail: mukhlisbek97@mail.ru

Annotation. This article discusses aspects of achieving results in the process of revealing the organizational and pedagogical foundations for achieving high efficiency in the physical education of students of a higher educational institution. At the same time, the results obtained during the study are presented.

Keywords: physical culture, physical education, physical qualities, physical exercises, means, method.

ИЛК ВА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР БИЛАН ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ШАКЛЛАРИ ВА УЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШ УСУЛЛАРИ

Ганиева Мавлудаҳон Абдумуҳтор қизи

АДПИ Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари назарияси ва методикаси

факултети 2-босқич магистранти

$$\begin{cases} \frac{\partial L(x, y, \lambda)}{\partial x} = 1 - \frac{1}{(1+x)^2} - \lambda = 0 \\ \frac{\partial L(x, y, \lambda)}{\partial y} = 1 - \frac{1}{(1+y)^2} - \lambda = 0 \end{cases}$$

From this system of equations can be found: $x = y = \frac{1}{2}$, $\lambda = \frac{5}{9}$.

We check the found point $A\left(\frac{1}{2}, \frac{1}{2}\right)$ for the second sufficiency condition of the extremum. For this, we find the representation of the second-order differential of the function $L(x, y, \lambda)$ at the found point $A\left(\frac{1}{2}, \frac{1}{2}\right)$:

$$d^2L = \frac{2}{(1+x)^3} dx^2 + \frac{2}{(1+y)^3} dy^2 \Rightarrow d^2L|_A = \frac{16}{27} dx^2 + \frac{16}{27} dy^2 > 0.$$

Thus, the function $f(x, y)$ reaches a conditional minimum at the point $A\left(\frac{1}{2}, \frac{1}{2}\right)$, and from that we have

$$\frac{x^2}{x+1} + \frac{y^2}{y+1} \geq \frac{1}{3}.$$

REFERENCES:

1. Alimov Sh., Ashurov R. Matematik tahlil. 2-qism. “Mumtoz so‘z”, Toshkent, 2018.
2. Т.Азларов., X.Мансуров. Математик анализ 2-қисм. “Ўқитувчи” , Тошкент 1989.
3. Тер-Крикоров А.М. , Шабунин.М.И. Курс математического анализа: Учеб.пособие для вузов. – 3 -е изд.,изправл. –М.:ФИЗМАТ-ЛИТ, 2001.
4. Sa'dullayev A., Mansurov H., Xudoyberganov G. va b.q. Matematik analiz kursidan misol va masalalar to`plami. 2-qism. “O`zbekiston” nashriyoti. Toshkent, 1993.
5. <https://www.imo-official.org/>
6. http://ramanujan.math.trinity.edu/wtrench/texts/TRENCH_LAGRANGE_METHOD.PDF

MUSOBAQA QOIDALARIDAGI O‘ZGARISHLAR TURLI USLUBDA JANG OLIB BORUVCHI BOKSCHILARNI MUSOBAQA FAOLIYATIGA TA’SIRINI TADQIQ QILISH

Karimov Shexnazar Kurbanbaevich, katta o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
Chirchiq shahri, O‘zbekiston
E-mail: sh-karimov89@mail.ru

ANNOTATSIYA

O‘tkazilgan tahliliy natijalarga ko‘ra, musobaqa qoidalaridagi o‘zgarishlar turli uslubda jang olib boruvchi bokschilarini musobaqa faoliyatiga ta’sirini o‘rganilgan. Turli uslubda jang olib boruvchi bokschilarini o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonida musobaqa qoidalariga kiritilgan o‘zgarishlarini hisobga olgan holda olib borish keragligi yoritib berilgan.

Key words: musobaqa qoidalaridagi o‘zgarishlar, turli uslubda jang olib boruvchi bokschilar, musobaqa faoliyatiga ta’sirini tadqiq qilish.

CHANGES IN COMPETITION RULES COMPETING BOXERS OF DIFFERENT STYLES RESEARCH INFLUENCE ON ACTIVITY

ANNOTATION

According to the results of the analysis, the influence of changes in the rules of competition on the competitive activity of boxers fighting in various styles was studied. It was highlighted that boxers fighting in different styles should be taught in the training process, taking into account the changes made to the competition rules.

Key words: CHanging rules of competition, boxers in different fighting styles, research of the impact on competition activity.

Tadqiqotning dolzarbliji. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 29 apreldagi PQ 5099-sonli “Boksnini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori yurtimizda boks sport turi bo‘yicha professional trenerlar va hakamlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish, ilmiy-metodologik bazani yanada kuchaytirish vazifalari aniq belgilab o‘tilgani mamlakatimiz bokschilarini tayyorgarlik jarayonlarini yuqori pog‘onaga ko‘tarish uchun qonuniy asos bo‘lib xizmat qiladi (1).

Sport amaliyotidan bizga ma'lumki, boks musobaqa qoidalarining o'zgarishi, xususan, hakamlik faoliyatidagi o'zgarishlar sportchilarning texnik-taktik, jismoniy, psixologik tayyorgarlik jarayonlariga hamda musobaqa faoliyatga qo'yiladigan talablarning o'zgarishiga olib keldi.

Ko'p sonli boks mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tizimli yondashuv nuqtai nazaridan bokschining sport faoliyati raqib bilan shaxsiy bellashuvda g'alabaga erishishga qaratilgan bo'lib, sportchilarning individual xususiyatlari, shuningdek, o'quv jarayonining sifati va samaradorligi tufayli zarur texnik-taktik, jismoniy va aqliy tayyorgarlikni ta'minlaydi. Musobaqa faoliyatga qo'yiladigan zamonaviy talablarni o'rghanish va ushbu talablarga javob beradigan malakali sportchilarni tayyorlash texnologiyasini yaratish zarurati ko'plab mualliflar tomonidan qayd etilgan (Frolov O.P., 1966; Jeroyan G.O., 1970; Demin V.A., 1975; Frolov O.P., Vartanov G.M., Ispandiyarov M.I., 1986; Novikov A.A., Akopyan A.O., 1993; Matveev L.P., 1996; Xalmuxamedov R.D. 2015; Rajabov G.Q. 2019 va boshqalar).

Bugungi sport amaliyotida muvaffaqiyatga erishish va egallangan o'rirlarni saqlab qolishning zarur shartlaridan biri sportchilarni musobaqa qoidalaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'quv-mashg'ulotlarni optimallashtirishning yangi usul va vositalarni ishlab chiqish talab qiladi.

So'ngi yillarda Xalqaro boks assotsiatsiyasi "IBA" tomonidan sportchilarning salomatligini saqlash va sport turining ommaviyligini oshirish borasida musobaqa va hakamlik qoidalariga o'zgarishlar kiritib borilmoqda.

2020 yilda o'tkazilgan Tokio Olimpiyadasidan keyin bokschilar vazin toifalaridagi o'zgarishlar asosida musobaqalarda qatnashishlar halqaro boks assotsiatsiyasi tomonidan belgilandi. Bu o'zgarish bokschilarni musoboqa faoliyati va o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga o'z ta'sir o'tkazdi.

Tadqiqot maqsadi. Turli uslubda jang olib boruvchi bokschilarni musobaqa va hakamlik qoidalaridagi o'zgarishlarga to'g'ri tayyorlash orqali musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish.

Ish jarayonida quyidagi vazifalar xal qilinadi:

1. Turli uslubda jang olib boruvchi bokschilarni musobaqa faoliyati jarayonini o'rghanish.
2. Turli uslubda jang olib boruvchi bokschilarni musobaqa faoliyati jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartarf qilishni samarali yo'llarini aniqlash.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot vazifalarni xal etish uchun, maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili bilan bir qatorda, quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: pedagogik kuzatuv, video tahlil, tajribani umumlashtirish, nazariy tahlil, pedagogik tajriba va matematik statistika usullari.

Malakali bokschilarni musobaqa qoidalaridagi o‘zgarishlarga qay darajada tayyorlik darajasini o‘rganish borasida tahlil o‘tkazildi. Kuzatuvlar jarayonida 24 ta musoboqada 155 tadan oshiq janglar tahlil qilindi. Boks bo‘yicha Respublika birinchiligi va Toshkent viloyati birinchiligi musobaqalarida hamda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitet ochiq birinchiligi chempionatlarida kuzativ ishlari olib borildi.

Tatqiqot natijalari va uning muhokamasi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalaridan aniqlangan holatlar shuni e’tirof etishga imkon beradiki, sport musobaqalari - ko‘rsatish uslubi, sport yutuqlarini baholash va taqqoslash, sport soxasidagi raqobatlarni o‘ziga nisbatan boshqarishdir. Sport musobaqalari, boshqalar bilan muloqotda bo‘lishni kerakli omili, shaxsni tashkil topishini vositasi, inson imkoniyatlarini anglab etish, etalon ko‘rsatkichlarini tuzishga qaratilgan.

Biz tomondan o‘tkazilgan dastlabki pedagogik tadqiqot natijalari ko‘ra, tez sur’atli bokschilarni musobaqa faoliyati janglarini tahlil qilish bizga shuday jarohatlanish turlarini aniqlashga imkon berdiki, bu jarohat turlari asosan tez sur’at uslubida jang olib boruvchi bokschilarga xosligi bilan ajralib turadi.


Kuchli zarba bilan shiddatli hujum qiluvchi bokschilar asosan individual uslub xsusiyatidan kelib chiqqan holda, bokschilar zarba berishga intilish jarayonida noto‘g‘ri texnik harakatlarni bajarish oqibatida turli jarohatlar oorganliklari tahliliy natijalar jarayonida aniqlandi.

Qarshi hujumni afzal ko‘rvuchi bokschilar, texnik jihatdan mohir bokschilar va kombinotsion jang olib boruvchi universal bokschilarning musobaqa va o‘quv-mashg‘ulot janglarini tahlil qilish jarayonida uchta uslubda jang olib boruvchi bokschilarni barchasida jarohatlar foyizlari boshqa uslubda jang olib boruvchi bokschilarga qaraganda ikki barobarga kamligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday ko‘rsatkichlarning asosiy sabablaridan biri ularning individual jang uslublari xsusiyatlari bo‘lsa, ikkinchi tomondan jangni nazorat qilish qobiliyatlariga ham bog‘liqligi tadqiqotlar jarayonida o‘z isbotini tobdi.

Chapaqay bokschilarni o‘quv-mashg‘ulot va musobaqa faoliyati janglarini tahliliga ko‘ra, kuchli zorbalar bilan shiddatli hujum qiluvchi bokschilar jarohatlari foizlari bilan diyarli bir hilligini ko‘rishimiz mumkin. Buning asosi sabablaridan biri aynan chabaqay uslubda jang olib boruvchi bokschini ko‘rsatkichlari kuchli zorbalar bilan shiddatli hujum qiluvchi bokschilar xsusiyatlariga yaqinligidan dalolat beradi.

Malakali bokschilarni musobaqa faoliyati jarayonida qo‘llanilgan texnik-taktik harakatlari yakuniy tahlili shuni ko‘rsatdiky, malakali bokschilarni musobaqa janglarida olgan asosiy jarohatlanishlari bosh qismida uchradi, qosh, qovoq, bosh va burunning yorilishi va shunga o‘hhash jarohatlar soni oshishi kuzatildi. Buning asosiy

sabablaridan biri bosh qismini himoyalovchi “shlemlar”ni musobaqa qoidalaridan olib tashlashi, musobaqa va hakamlikdagi o‘zgarishlarga asosan bokschilarni mashg‘ulotlarda to‘g‘ri tayyorlamagani sabab bo‘lmoqda.




1-diagramma. Turli uslubda jang olib boruvchi bokschilarni musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari (n=60)

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni tahlil qilar ekanmiz malkali bokschilarni musobaqa va hakamlik qoidalaridagi o‘zgarishlarga bokschilarni asosan to‘g‘ri tayyorlanmaganligi aniqlandi.

Tadqiqotga jalb qilingan “SKUF” boks jamoasi sportchilarni musobaqa va hakamlik qoidalaridagi o‘zgarishlarga to‘g‘ri tayyorlash bo‘yicha 10 oy davomida 10 soat uslubiy 40 soat amaliy o‘quv-mashg‘ulotlar o‘tkazildi.

O‘tkazilgan tadqiqot ishonchlilagini o‘rganish maqsadida boksci-larini texnik-taktik harakatlar ko‘rsatkichlari guruhlar bo‘yicha aloxida statichtik tahlil qilindi.



2-diagramma. Turli uslubda jang olib boruvchi bokschilarni musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari (n=60)

Xulosalar. Biz tomondan o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ko'rinish turibdiki, tadqiqotga jalb qilingan turli uslubda jang olib boruvchi bokschilarning diyarli barchasida jaroxat olishlari tadqiqodan oldingi ko'rsatkichlarga qaraganda ancha yaxshilangani ko'rinish turibdi.

Biz yuqorida keltirgan musobaqa va hakamlik qoidalaridagi o'zgarishlarga to'g'ri tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy mashg'ulotlar orqali sportchilarni tayyorlash yuqori malakali bokschilar zahirasini oshirishga katta yordam beradi.

Malakali bokschilarni musobaqa va hakamliklardagi o'zgarishlarni xisobga olgan xolda bokschilarni o'quv-mashg'ulotlarini tashkil etilsa samarali natijalarni qo'lga kiritish mumkinligi yana bir bor izlanishlar jarayonida o'z isbotini topdi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Боксни янада ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Қарори. Тошкент ш., 2021 йил 29 апрел. www.lex.uz
2. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. Общая теория и её практические применения.- К: Олимпийская литература, 2004. -С.343-345.
3. Вяткин Б.А. Темперамент и динамика спортивной деятельности // Роль темперамента в спортивной деятельности. – М. 1978. –28-38 с.
4. Ражабов Г.К. (2020). Повышение результативности и надежности соревновательной деятельности квалифицированных боксёров. *Теория и практика физической культуры, (7)*.
5. Ражабов F.Қ. (2020). Малакали боксчиларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда мусобақа фаолияти техник-тактик ҳаракатларини таҳлил қилиш. *Современное образование (Узбекистан)*, (1).
6. Ражабов F.Қ., Қаландаров Д.Ш., Каримов Ш.Қ. (2021). Малакали боксчиларни яккакураш шароитлари турлича бўлганда жанг олиб бориш воситалари қўлланишининг индивидуал кўрсаткичларини тадқиқ қилиш. *Фан-спортга, (7)*.
7. Супов Б.П. Очерки о боксерах, их спортивной деятельности и ее психолого-педагогическом контроле — М.: МИИТ, 2005. 324 с.
8. Таймазов В.А. Индивидуальная подготовка боксеров в спорте высших достижений: автореф. дис...д-ра пед. наук. СПб., 1997. - 48 с.

К ВОПРОСУ ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ПЛАКАТОВ В ОБУЧЕНИИ ХИМИИ

Исматуллаева С.У.,
404R-МПХ, ТГПУ им. Низами

Алимова Ф.А.,
к.пед.н., доц. ТГПУ им. Низами

Аннотация: в тезисе рассмотренные применения глокстер в образовании.

Ключевые слова: глокстер в образовании, глог

Чтобы решить задачу формирования характеристик творческой личности системе образования необходимо использование таких инновационных технологий, которые преследуют цель творческого воспитания личности в интеллектуальном и эмоциональном плане. Такими технологиями принято считать:

- проектирование,
- проблемное обучение,
- игровое обучение,
- обучение в сотрудничестве,

Одной из составляющих для развития школьника по химии является его познание, подразумевающее сформированность научной картины мира, способности управлять своей интеллектуальной деятельностью, развитие репрезентативного, символического, логического, творческого мышления, продуктивного воображения, памяти, внимания, рефлексии.

Одним из способов активизации учащихся в процессе обучения химии является проектирование (метод проектов), когда ученики самостоятельно планируют, создают, представляют свой проект, активно включаясь в процесс коммуникативной деятельности.

Представления результатов своей проектной деятельности учащиеся на сегодняшний день могут воспользоваться самым широким спектром Интернет-сервисов. Очень популярным сейчас является использование с этой целью презентаций в программе Power Point, но это далеко не единственный и не самый лучший вариант.

Одним из альтернативных вариантов является использование ресурса Glogster, который позволяет создавать интерактивные плакаты, являющиеся своеобразной презентацией определённой темы и обладающие возможностью разместить на таком плакате не только текстовую и графическую информацию, но и аудио и видео материалы, рисунки и анимацию.

Кроме этого, преподаватель может прикреплять к созданному глогу приложения (так же, как в электронной почте), которыми могут быть грамматические и лексические упражнения, задания к видео отрывку или тексту, презентация, а также ссылки на другие источники в сети Интернет. Можно использовать веб камеру и микрофон своего компьютера и записать звук и видео самим, а затем легко прикрепить их к интерактивному плакату. Использование платформы не является сложным процессом, несмотря на большие возможности ресурса. Как учащиеся, так и учителя получают возможность проявить и свои дизайнерские способности, варьируя внешние черты глога.

Использование глогов в качестве одного из компонентов информационно-образовательной среды способствует интерактивности образовательного процесса. Специально созданная версия для образования позволяет учителю организовать работу с целым классом.

Помня о том, что глог – это способ визуализировать информацию, можно использовать данную технологию в разных вариантах. Опишем некоторые из них:

1) Глог – источник фактической информации. В этом случае учитель подбирает информацию в разных форматах и различного содержания по изучаемой теме химии. Учащиеся исследуют данную информацию, находя ответы на поставленные вопросы. В этой функции глог может использоваться как в качестве конспекта одного урока, так и в качестве обобщающей карты-схемы целой темы.

2) Глог – самопрезентация ученика. Ученик использует глог, чтобы представить себя как личность. Ученик может разместить и затем представить информацию, связанную со своими увлечениями по химии, интересами и достижениями.

3) Глог – доказательство мнения. Используется для развития навыков аргументации, умений, связанных с формулировкой и обоснованием своего мнения. Учащиеся с помощью глога могут представить и доказать свою точку зрения, подготовиться к групповой дискуссии по выбранной теме химии.

4) Глог – домашнее задание. Представление материала, изученного на уроке химии в краткой форме, сопровождающееся домашним заданием может быть ещё одним вариантом использования глогов. Доступность и открытость

изучаемого материала помогут учащимся в нужном им режиме пользоваться материалами и при необходимости использовать их в качестве опоры при выполнении домашнего задания..

6) Глог – виртуальная экскурсия. Возможности платформы позволяют использовать глоги, чтобы создать виртуальную экскурсию предприятиям химической промышленности нашей Республики.

Таким образом можно сделать вывод, что глоги могут стать важным компонентом информационно-образовательной среды при обучении химии за счёт таких важных характеристик, как мультимедийность, интерактивность, возможности для продуктивного использования химических знаний.

Использованная литература.

1. Alimova F. A. Information technologies as a form of visual presentation of educational information //British View. – 2022. – Т. 7. – №. 4.
2. Alimova F. A. Problems with using the possibilities of digital educational resources in studying chemistry //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
3. Berdiqulov R. S. Kimyo ta’limiga mantiq qoidalarini integratsiyalash to ‘g ‘risida //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – №. 1. – С. 82-85.
4. Усмонова Д. Т. Личностно ориентированный подход в преподавании химии //Conferencea. – 2023. – С. 21-24.
5. Shomurotova S. X. Oliy ta’lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlar asosida kimyo o‘qitish metodikasini takomillashtirish. – 2022.

УДК: 595.794/.799

HYMENOPTERA, APOIDEA, SPHECIDAE ОИЛАСИННИГ БИОЭКОЛОГИЯСИ ВА АҲАМИЯТИ

М.В. Элмуродова.

Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти

e-mail: muhayyoelmurodova@gmail.com

Аннотация: Мақолада Hymenoptera, Apoidea, Sphecidae қазувчи арилар оиласининг биоэкологияси ва аҳамияти қисқача ёритилиб, 2022 йил март – сентябр ойларидағи марказий ўзбекистон ҳудуди олиб борилган тадқиқотларимиздан итгилган намуналарнинг тур таркиби анализ қилинди.

Калит сўзлар: Қазувчи арилар, *Podalonia affinis*, *Podalonia hirsuta*, *Prionyx viduatus*, *Prionyx sp.*, *Sphex funerarius*, *Chalybion omissum*, *Larra anathema*, *Cerceris straminea*, *Cerceris sp.*, *Bembix oculate*.

Аннотация: В статье кратко освещается биология и экология пчелиных семей, копающих перепончатокрылых, Apoidea, Sphecidae, и анализируется видовой состав образцов, собранных в ходе наших исследований, проведенных на территории Центрального Узбекистана в марте – сентябре 2022 года.

Ключевые слова: роющие ось, *Podalonia affinis*, *Podalonia hirsuta*, *Prionyx viduatus*, *Prionyx sp.*, *Sphex funerarius*, *Chalybion omissum*, *Larra anathema*, *Cerceris straminea*, *Cerceris sp.*, *Bembix oculate*.

Abstract. The article briefly covers the biology and ecology of the bee family digging Hymenoptera, Apoidea, Sphecidae, and analyzes the species composition of the samples collected from our research carried out in the territory of Central Uzbekistan in March – September 2022.

Key words: digger wasps, *Podalonia affinis*, *Podalonia hirsuta*, *Prionyx viduatus*, *Prionyx sp.*, *Sphex funerarius*, *Chalybion omissum*, *Larra anathema*, *Cerceris straminea*, *Cerceris sp.*, *Bembix oculate*.

Sphecidae (Қазувчи арилар) – нишли пардачақанотлилар бўлиб, Жаҳон миқёсида 800 га яқин тури аниқланган. Apoidea бош оиласининг замонавий таснифида (Миченер, 2007) Apoidea икки носистематик гурӯҳга бўлинади

(бўлимлар): Spheciformes – сфекоид арилар (Ampulicidae, Sphecidae, Crabronidae) ва Apiformes – асаларилар (Stenotritidae, Colletidae, Andrenidae, Halictidae, Melittidae, Megachilidae, Apidae). Ўзбекистонда ўрганилганлик даражаси В.Гуссаковский (1928), Г.А. Авенесова, А.К. Мансуров (1979), Ш.Д. Исламов (1986), А.Г. Давлетшина, В.Л. Казенас (1998, 2001, 2002), М.В. Мокроусов, В.А. Зрянин (2015). Қазувчи ариларнинг барчаси кундузги ҳашаротлар ҳисобланниб, Марказий Осиё, жумладан Ўзбекистон ҳудудида яшайдиган турларнинг аксарияти иссиқликини яхши кўрадиган ҳашаротлар ҳисобланади (Казенас, 1998).

Энтомофаг сифатида қазувчи арилар табиатда муҳим рол ўйнайди, чунки кўплаб ҳашаротлар (ва ўргимчаклар) сонини назорат қилишда иштирок этади ҳамда қишлоқ ва ўрмон хўжалигига зарар келтирадиган ва ветеренария ва тиббиёт соҳасига зарар етказувчи ҳашаротлар сонини сезиларли даражада камайтиради. Бундан ташқари қазувчи арилар гулли ўсимликлар чангланишида ҳам кам бўлмаган аҳамиятга эга. Бу ариларнинг фақатгина бир неча турлари фойдали ҳашаротлар ва ўргимчакларни (чанглантирувчи ва энтомофаглар) ўлдириб зарар келтиради.

Улар асосан, тайёр табиий бўшликларда, бир ёки бир нечта ерга қазилган тешикларда уя қурадилар ёки хўл лойдан уялар ясадилар. Ўлжаси - капалак куртлари, тўғри қанотлилар ва ўргимчаклар ҳисобланниб. Уларни нерв боғларида бир ёки бир нечта чақиш билан фалаж қилиб, личинкалар учун озиқ-овқат сифатида уяга жойлаштиради.

Тоғ минтақаси фаунаси охирги вақтларда кўплаб тадқиқотчиларнинг эътиборини тортмоқда. Гап шундаки, тоғлар бир томондан интенсив тур ҳосил бўлиш майдони бўлса, бошқа томондан кўплаб реликтлар ва уникал эндемиклар сақланиши учун рефугиум бўлиб ҳисобланади. Бундан келиб чиқадики, тоғ минтақаси биохилма-хилликни сақлашдаги муаммоларни ҳал қилишда муҳим рол ўйнайди.

Bembix F. туркумига мансуб қазувчи арилар қорамолларга, отларга ва бошқа уй ҳайвонларига ҳужум қилувчи ва чорвачиликка сезиларли зарар етказувчи сўналарнинг фаол қирувчилари сифатида танилган. Бембиксларнинг биологияси ва экологиясини ўрганиш бу фойдали ҳашаротларни амалий фойдаланиш йўлларини ишлаб чиқиш учун катта аҳамиятга эга.

Тадқиқот ишлари 2022 йил Навоий вилояти Кармана тумани ($40^{\circ}05'21.27''N$ $64^{\circ}57'47.73''E.$) ва Навоий вилояти Кизилтепа тумани ($40^{\circ}02'45.45''N$ $64^{\circ}51'13.23''E.$), Навоий вилояти Маликработ тумани ($40^{\circ}05'42.6''N$ $64^{\circ}59'04.17''E.$) ҳудудида, Навоий вилояти Зарафшон дарёси ўрта оқими ($40^{\circ}04'15.97''N$ $65^{\circ}42'04.28''E.$) ҳудудида, Навоий вил. Тошработ тумани

(40°17'45.48"N 65°24'41.48"E) Қорақарға довони (40°22'00.24"N 65°27'59.71"E.) Айдаркүл (40°59'41.44"N 65°55'41.86"E.), Зарафшон дарёси 40°03'37.4"N 65°41'18.9"E. худудида, Ўртачўл (40°06'03.88"N 65°68'85.82"E) Тўдакўл, Аму – Бухоро канали (39°48'38.34"N 64°57'47.6"E) худудида олиб борилди.

Йифилган намуналар 96 % ли спиртда пластмасса идишларда сақланди. Шунингдек МБС-109 бинокуляр, Мотик В 1-220A -1, SZM -161-TL, P122 DISSECTING MICROSCOPE" микроскоплари фойдаланилди.

Аниқланган турлар : *Ammophila heydeni*-Бу турининг қорин бўшлигининг 1-дан 6-сегментигача қора рангда бўлади. Урғочи тана узунлиги 18-24 мм, эракнинг тана узунлиги 16-22 мм. Авлодининг энг кенг тарқалган турларидан бири. Личинкаларини капалаклар (Geometridae ёки Noctuidae), вояга етганлари чўл ва тоғ ўсимлик нектарлари билан озиқланади. *Ammophila heydeni* *Ammophila* авлодининг энг кенг тарқалган турларидан бири ҳисобланади

Ammophila sabulosa - тури урғочиларнинг тана узунлиги 20-28 мм, эркакларнинг тана узунлиги 17-23 мм. Тананинг асосий ранги ва оёқлари қора. Ўрмон зонасидаги очиқ жойларда, дашт, ярим чўл ва чўлларда яшайди. Ўлжаси – капалакларнинг қуртлари (Lepidoptera: Noctuidae, Geometridae, Limantriidae, Pieridae, Notodontidae ва бошқалар) ҳисобланади. Урғочилар дастлаб уя қуради ва шундан сўнг ов қиласи. Фалаж бўлган ўлжани уяга олиб боради ва у ерда личинкаларини озиқлантиради.

Ammophila campestris - Бу тури урғочиларининг тана узунлиги 12-30 мм, эркакларининг тана узунлиги 12-18 мм. Тананинг асосий ранги қора, қорин қисми қисман қизғиши-қизил. Улар капалак қуртлари (Geometridae, Pieridae, Noctuidae) ва бошқа ҳашаротларни овлашади, уларни фалаж қилиб, кейин уяларига судрайди ва у ерда личинкаларини озиқлантиради. Тупроқка уя қуради. Вояга етган арилар **ялпиз, пиёз, жузғун, сабзи** каби ўсимликларнинг нектари билан озиқланади.

Ammophila gracillima - урғочиларининг тана узунлиги 16-22 мм, эркакларининг тана узунлиги 14-18 мм. Бош ва кўқрак қисми қора рангда. Олди оёқлари одатда қизил рангта эга, мўйловлари қора рангда. Урғочилар, қумли тупроқда бир катакчали уялар қуради ва уларда капалак қуртларин (Lepidoptera) сақлайди. Вояга етган турлари чўл ўсимликлари нектари билан озиқланади.

Бундан ташқари *Podalonia affinis*, *Podalonia hirsuta*, *Prionyx viduatus*, *Prionyx sp.*, *Sphex funerarius*, *Chalybion omissum*, *Larra anathema*, *Cerceris straminea*, *Cerceris sp.*, *Bembix oculata* турлари қайд этилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. [\(PDF\) Sektsiya spheciformes - Royushchiye osy \(researchgate.net\)](#)
2. Казенас В.Л. (1998). «Роющие осы (Hymenoptera, Sphecidae). Выпуск Общая характеристика семейства. Подсемейства Ampulicinae, Sphecinae (Фауна Казахстана. Перепончатокрылые) - Алматы- 1998. — С.1-283.
3. Казенас В.Л. “Роющие осы”, - Алматы - 2013 г. - 160 с.
4. Казенас В.Л. Фауна и биология роющих ос (Hymenoptera, Sphecidae) Казахстана и Средней Азии. КазгосИНТИ. — Алматы: 2001. 334 с. — [ИСБН 9965-466-31-9](#).
5. Гуссаковский В.В. Новые виды Sphecidae из Закаспия и Хивы // Изв. Курсов прикл. зоол. фитопатол., 1928б. Вып. 4. С. 3-19.

ENG SODDA TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNI GRAFIK USULDA YECHISH

Nurkayev Shuhrat Jurayevich

Turin politexnika universiteti akademik litseyi oliv toifali
matematika fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada trigonometric tenglamalarni grafik usulda yechish tushuntirilgan. Ananaviy birlik aylanada yechish usuli matab kursida tushintiriladi.

Kalit so‘zlar: Trigonometrik tenglama, yechish, usul, sonlar, javob.

Abstract: This article explains how to solve trigonometric equations graphically. The traditional method of solving the unit circle is explained in the school course.

Key words: Trigonometric equation, solution, method, numbers, answer.

Ma’lumki, matab kursida trigonometrik tenglamalarni yechish birlik aylanada tushuntiriladi. Trigonometrik tenglamalarni grafik usulda yechish ham sezilarli darajada foyda beradi. Grafik usulda qay tarzda yechish mumkinligi tushuntiramiz.

1. $\cos x = a$ tenglama.

Agar $|a| > 1$, ya’ni $a \in (-\infty; -1) \cup (1; \infty)$ bo‘lsa, u holda $\cos x = a$ tenglama yechimiga ega emas, chunki har qanday x uchun $|\cos x| \leq 1$.

Endi $|a| \leq 1$, ya’ni $a \in [-1; 1]$ bo‘lsin.

Ushbu $\cos x = a$ tenglamani qanoatlantiradigan barcha x larni topaylik.

Faraz qilaylik, $x \in [0; \pi]$ bo‘lsin. Ushbu $x \in [0; \pi]$ kesmada yuqorida berilgan tenglananining bitta aniq yechimi mavjud.

$$x_1 = \arccos a.$$

$y = \cos x$ funksiya –juft funksiya va demak $[-\pi; 0]$ kesmada $\cos x = a$ tenglama yana bitta yechimiga ega.

$$x_2 = -\arccos a.$$

Shunday qilib, $\cos x = a$ tenglama $[-\pi; \pi]$ kesmada ikkita yechimga ega :


$$x = \pm \arccos a.$$

$y = \cos x$ funksiyaning davriyligi va uning davri $2\pi n$ bo'lgani sababli qolgan yechimlarning hammasi bu yechimlardan $2\pi n, n \in \mathbb{Z}$ ga farq qiladi.


Ya'ni $\cos x = a, |a| \leq 1$ tenglamaning barcha yechimlari quyidagicha topiladi :

$$x = \pm \arccos a + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}, \quad (1)$$

$\cos x = a$ tenglamaning yechimlarini quyidagicha tasvirlash mumkin :



$\cos x = a$ tenglamaning hususiy hollardagi yechimlarini keltiramiz :



$$\cos x = 0 \quad x = \frac{\pi}{2} + \pi k, \quad k \in \mathbb{Z}$$

$$\cos x = 1 \quad x = 2\pi k, \quad k \in \mathbb{Z}$$

$$\cos x = -1 \quad x = \pi + 2\pi k, \quad k \in \mathbb{Z}$$

1-misol . $\cos x = \frac{1}{2}$ **tenglamani yeching.**

Yechish:

(1) ga ko‘ra :

$$x = \pm \arccos \frac{1}{2} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

$\arccos \frac{1}{2} = \frac{\pi}{3}$ bo‘lgani uchun ushbu javobga kelamiz:

$$x = \pm \frac{\pi}{3} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

Javob: $x = \pm \frac{\pi}{3} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z}.$

2-misol . $\cos\left(2x - \frac{\pi}{4}\right) = -\frac{\sqrt{3}}{2}$ **tenglamani yeching.**

Yechish:

(1) ga ko‘ra :

$$2x - \frac{\pi}{4} = \pm \arccos\left(-\frac{\sqrt{3}}{2}\right) + 2\pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$\arccos\left(-\frac{\sqrt{3}}{2}\right) = \frac{5\pi}{6}$ bo‘lgani uchun quyidagini hosil qilamiz:

$$2x = \frac{\pi}{4} \pm \frac{5\pi}{6} + 2\pi n, n \in \mathbb{Z},$$

yoki

$$x = \frac{\pi}{8} \pm \frac{5\pi}{12} + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

Yoki $x_1 = \frac{\pi}{8} + \frac{5\pi}{12} + \pi n = \frac{3\pi + 10\pi}{24} + \pi n = \frac{13\pi}{24} + \pi n, n \in \mathbb{Z}$ va
 $x_2 = \frac{\pi}{8} - \frac{5\pi}{12} + \pi n = \frac{3\pi - 10\pi}{24} + \pi n = -\frac{7\pi}{24} + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$

Javob: $x = \frac{\pi}{8} \pm \frac{5\pi}{12} + \pi n, n \in \mathbb{Z}$

3-misol . $\cos^2 x = 1$ tenglamaning nechta ildizi $x^2 \leq 10$ shartni qanoatlantiradi ?

Yechish:

Dastlab , $x^2 \leq 10$ tengsizlikni yechib olamiz.

$$x^2 - 10 \leq 0 .$$

Chap tomonini ko‘paytuvchilarga ajratamiz :

$$(x - \sqrt{10})(x + \sqrt{10}) \leq 0 .$$

Bu tengsizlikni oraliqlar usulida yechib, quyidagi yechimlarni hosil qilamiz:

$$x \in [-\sqrt{10}; \sqrt{10}] .$$

Endi berilgan trigonometrik tenglamani yechamiz.

$$\cos^2 x = 1 .$$

Buning uchun daraja pasaytirish formulasidan foydalanamiz.

$$\frac{1 + \cos 2x}{2} = 1$$

yoki

$$1 + \cos 2x = 2$$

yoki

$$\cos 2x = 1 .$$

Sodda trigonometrik tenglamani yechamiz.

$$2x = 2\pi n, n \in \mathbb{Z}$$

yoki

$$x = \pi n, n \in \mathbb{Z} .$$

Endi berilgan shartni qanoatlantiradigan yechimlarni topamiz.

$$n = -2 \text{ da } x = -2\pi \approx -2 \cdot 3,14 = -6,28 \notin [-\sqrt{10}; \sqrt{10}],$$

$$n = -1 \text{ da } x = -\pi \approx -3,14 \in [-\sqrt{10}; \sqrt{10}] ,$$

$$n=0 \text{ da } x=0 \in [-\sqrt{10}; \sqrt{10}] ,$$

$$n=1 \text{ da } x=\pi \approx 3,14 \in [-\sqrt{10}; \sqrt{10}] ,$$

$$n=2 \text{ da } x=2\pi \approx 2 \cdot 3,14 = 6,28 \notin [-\sqrt{10}; \sqrt{10}] .$$

$n \leq -2$ va $n \geq 2$ larda yechimlar $[-\sqrt{10}; \sqrt{10}]$ kesmaga tegishli bo'lmaydi.

Javob: 3 ta

4-misol . Agar $|\cos x| = 2 + \cos x$ **bo'lsa** , $2^{\cos x} + 3^{\sin x}$ **ning qiymatini toping.**

Yechish:

Dastlab , son modulining ta'rifini eslatib o'tamiz. $|a| = \begin{cases} a, & \text{agar } a \geq 0 \\ -a, & \text{agar } a < 0 \end{cases}$.

Demak , $|\cos x| = \begin{cases} \cos x, & \text{agar } \cos x \geq 0 \\ -\cos x, & \text{agar } \cos x < 0 \end{cases}$.

1-hol. $\cos x \geq 0$ bo'lsin. U holda

$$\begin{aligned} \cos x &= 2 + \cos x, \\ 0 &= 2 . \end{aligned}$$

Bu holda tenglama yechimga ega emas.

2-hol . $\cos x < 0$ bo'lsin. U holda

$$-\cos x = 2 + \cos x$$

yoki

$$-2 \cos x = 2$$

yoki

$$\cos x = -1 .$$

Endi $\sin x$ ning qiymatini topamiz.

$$\sin x = \pm \sqrt{1 - \cos^2 x} = \pm \sqrt{1 - (-1)^2} = \pm \sqrt{1 - 1} = 0 .$$

$$\text{Demak , } 2^{\cos x} + 3^{\sin x} = 2^{-1} + 3^0 = \frac{1}{2} + 1 = \frac{3}{2} = 1,5 .$$

Javob: 1,5.

2. $\sin x = a$ tenglama.

Xuddi kosinusdagi singari, agar $|a| > 1$, ya'ni $a \in (-\infty; -1) \cup (1; \infty)$ bo'lsa, $\sin x = a$ tenglama ham yechimga ega emas, chunki har qanday x uchun $|\sin x| \leq 1$.

Endi $|a| \leq 1$, ya'ni $a \in [-1; 1]$ bo'lsin.

Ushbu $\sin x = a$ tenglamani qanoatlantiradigan barcha x larni topaylik.

$\left[-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right]$ kesmada $\sin x = a$ tenglananing bitta aniq yechimi bor:

$$x_1 = \arcsin a.$$

$\left[\frac{\pi}{2}; \frac{3\pi}{2}\right]$ kesmada $y = \sin x$ funksiya kamayuvchi va -1 dan 1 gacha hamma qiymatlarni qabul qiladi.

Ildiz haqidagi teoremaga ko'ra $\sin x = a$ tenglama bu kesmada ham aniq bitta yechimga ega :

$$\begin{aligned} x_2 &= \pi - \arcsin a, \\ \sin x_2 &= \sin(\pi - x_1) = \sin x_1 = a. \end{aligned}$$

Bundan tashqari,

$$-\frac{\pi}{2} \leq x_1 \leq \frac{\pi}{2}$$

bo'lgani uchun va

$$\pi - \frac{\pi}{2} \leq \pi - x_1 \leq \pi + \frac{\pi}{2}$$

ga egamiz, ya'ni x_2 son $\left[\frac{\pi}{2}; \frac{3\pi}{2}\right]$ kesmaga tegishli.

Shunday qilib, $\sin x = a$ tenglama $\left[-\frac{\pi}{2}; \frac{3\pi}{2}\right]$ kesmada ikkita yechimga ega :

$$x_1 = \arcsin a \text{ va } x_2 = \pi - \arcsin a.$$

($a=1$ da bu yechimlar bir xil). Sinusning davriyigini (davri $2\pi n$) hisobga olib, tenglananing barcha yechimlarini yozish uchun quyidagi formulalarni hosil qilamiz:

$$x = \arcsin a + 2\pi n \quad (*)$$


$$x = \pi - \arcsin a + 2\pi n \quad (**)$$

Ushbu $\sin x = a$ tenglama yechimlarini ikkita emas, balki bitta formula bilan yozish qulay:


$$x = (-1)^k \cdot \arcsin a + \pi k, k \in \mathbb{Z} \quad (2)$$

$k = 2n$ larda (2) formuladan (*) formula bilan yozilgan barcha yechimlarni topishga ; $k = 2n + 1$ larda (**) formula bilan yozilgan yechimlarning barchasini topishga oson ishonch hosil qilish mumkin.

$\sin x = a$ tenglanamaning yechimlarini quyidagicha tasvirlash mumkin:



$\sin x = a$ tenglanamaning hususiy hollardagi yechimlarini keltiramiz:



5-misol. $\sin x = \frac{\sqrt{2}}{2}$ tenglamani yeching.

Yechish: (2) ga asosan: $x = (-1)^k \cdot \arcsin \frac{\sqrt{2}}{2} + \pi k, k \in Z$

Tenglamada $\arcsin \frac{\sqrt{2}}{2} = \frac{\pi}{4}$ ni almashtiramiz.

$$x = (-1)^k \cdot \frac{\pi}{4} + \pi k, k \in Z.$$

Javob: $x = (-1)^k \cdot \frac{\pi}{4} + \pi k, k \in Z$.

6-misol. $\sin x = 0,3714$ tenglamani taqribiy yeching.

Yechish :

(2) ga asosan

$$x = (-1)^k \cdot \arcsin 0,3714 + \pi k, k \in Z.$$

Kalkulyator yordamida topamiz:

$$\arcsin 0,3714 \approx 0,3805.$$

Berilgan tenglamaning taqribiy yechimi quyidagicha:

$$x \approx (-1)^k \cdot 0,3805 + \pi k, k \in Z.$$

Javob: $x \approx (-1)^k \cdot 0,3805 + \pi k, k \in Z$.

7-misol. $\sin\left(\frac{\pi}{10} - \frac{x}{2}\right) = \frac{\sqrt{2}}{2}$ tenglamani yeching.

Yechish: Sinus – toq funksiya, ya’ni $\sin(-x) = -\sin x$.

Shuning uchun berilgan tenglamani quyidagicha yozamiz:

$$\sin\left(\frac{x}{2} - \frac{\pi}{10}\right) = -\frac{\sqrt{2}}{2}.$$

(2) ga asosan quyidagini yozamiz:

$$\frac{x}{2} - \frac{\pi}{10} = (-1)^k \arcsin\left(-\frac{\sqrt{2}}{2}\right) + \pi \cdot k, k \in Z,$$

$\arcsin\left(-\frac{\sqrt{2}}{2}\right) = -\frac{\pi}{4}$ bo‘lgani uchun:

$$\frac{x}{2} - \frac{\pi}{10} = (-1)^k \left(-\frac{\pi}{4}\right) + \pi \cdot k, k \in \mathbb{Z}$$

yoki

$$\frac{x}{2} - \frac{\pi}{10} = (-1)^k \cdot (-1) \cdot \frac{\pi}{4} + \pi \cdot k, k \in \mathbb{Z}$$

yoki

$$\frac{x}{2} = \frac{\pi}{10} + (-1)^{k+1} \cdot \frac{\pi}{4} + \pi \cdot k, k \in \mathbb{Z}.$$

Tenglamaning ikkala tomonini 2 ga ko‘paytiramiz.

$$x = \frac{\pi}{5} + (-1)^{k+1} \cdot \frac{\pi}{2} + 2\pi \cdot k, k \in \mathbb{Z}.$$

Javob: $x = \frac{\pi}{5} + (-1)^{k+1} \cdot \frac{\pi}{2} + 2\pi \cdot k, k \in \mathbb{Z}.$

8-misol. $|\sin 3x| = \frac{1}{2}$ tenglamani yeching.

Yechish: $|f(x)| = a$ tenglama berilgan bo‘lsa, uni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$\begin{cases} f(x) = a \\ f(x) = -a \end{cases}$$

Yuqoridagi trigonometrik tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$\begin{cases} \sin 3x = \frac{1}{2} \\ \sin 3x = -\frac{1}{2} \end{cases}$$

(2) ga asosan quyidagilarni yozamiz:

$$\begin{cases} 3x = (-1)^k \arcsin \frac{1}{2} + \pi k, k \in \mathbb{Z} \\ 3x = (-1)^k \arcsin \left(-\frac{1}{2}\right) + \pi k, k \in \mathbb{Z} \end{cases}$$

Ma’lumki, $\arcsin \frac{1}{2} = \frac{\pi}{6}$ va $\arcsin \left(-\frac{1}{2}\right) = -\frac{\pi}{6}$.

$$\begin{cases} 3x = (-1)^k \frac{\pi}{6} + \pi k, k \in \mathbb{Z} \\ 3x = (-1)^k \left(-\frac{\pi}{6}\right) + \pi k, k \in \mathbb{Z}. \end{cases}$$

Tenglamalarning har birining ikkala tomonini 3 ga bo‘lamiz.

$$\begin{cases} x = (-1)^k \frac{\pi}{18} + \frac{\pi k}{3}, k \in \mathbb{Z} \\ x = (-1)^{k+1} \frac{\pi}{18} + \frac{\pi k}{3}, k \in \mathbb{Z}. \end{cases}$$

Bu ikkala yechimlarni bitta yechim ko‘rinishda yozish qulay.

$$x = \pm \frac{\pi}{18} + \frac{\pi k}{3}, k \in \mathbb{Z}.$$

Javob: $x = \pm \frac{\pi}{18} + \frac{\pi k}{3}, k \in \mathbb{Z}.$

9-misol. $1 - \sin x - \cos 2x = 0$ ($x \in [0; 2\pi]$) tenglamaning ildizlari

yig‘indisini toping.

Yechish: Ma’lumki, $\sin^2 x + \cos^2 x = 1$, hamda $\cos 2x = \cos^2 x - \sin^2 x$. Ushbu ayniyatlardan foydalanib, tenglamani quyidagi ko‘rinishga keltiramiz:

$$\cos^2 x + \sin^2 x - \sin x - \cos^2 x + \sin^2 x = 0.$$

Soddalashtirgandan so‘ng quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$2\sin^2 x - \sin x = 0.$$

Qavsdan tashqariga bir xil ko‘paytuvchini chiqaramiz :

$$\sin x(2\sin x - 1) = 0.$$

Bu tenglamani yechish uchun har bir ko‘paytuvchini 0 ga tenglashtirib yechamiz:

$$1) \sin x = 0, x_1 = \pi k, k \in \mathbb{Z}.$$

$$2) 2\sin x - 1 = 0, \sin x = \frac{1}{2}, x_2 = (-1)^k \frac{\pi}{6} + \pi k, k \in \mathbb{Z}.$$

Endi $x \in [0; 2\pi]$ bo‘lgan yechimlarini topamiz:

$n = -1$ da $x_1 = -\pi$, $x_2 = -\frac{\pi}{6} - \pi$ yechimlar berilgan kesmaga tegishli emas.

$$n = 0 \text{ da } x_1 = 0 \in [0; 2\pi], x_2 = \frac{\pi}{6} \in [0; 2\pi],$$

$$n=1 \text{ da } x_1 = \pi \in [0; 2\pi], x_2 = -\frac{\pi}{6} + \pi = \frac{5\pi}{6} \in [0; 2\pi],$$

$$n=2 \text{ da } x_1 = 2\pi \in [0; 2\pi], x_2 = \frac{\pi}{6} + 2\pi = \frac{13\pi}{6} \notin [0; 2\pi].$$

Shunday qilib, tenglamaning berilgan kesmadagi ildizlari yig'indisi quyidagicha:

$$0 + \frac{\pi}{6} + \pi + \frac{5\pi}{6} + 2\pi = 4\pi.$$

Javob: 4π .

10-misol. $8^{\sin^2 x} - 2^{\cos^2 x} = 0$ tenglamani yeching.

Yechish: Berilgan tenglamani ko'rsatkichli tenglama deb qarab, bir xil asosga keltiramiz.

$$(2^3)^{\sin^2 x} = 2^{\cos^2 x}$$

yoki

$$2^{3 \cdot \sin^2 x} = 2^{\cos^2 x}.$$

Ma'lumki, $\cos^2 x = 1 - \sin^2 x$. Ushbu ayniyatdan foydalanib, yuqoridagi tenglamani quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$2^{3 \cdot \sin^2 x} = 2^{1 - \sin^2 x}.$$

Endi darajalarini tenglashtiramiz:

$$3\sin^2 x = 1 - \sin^2 x,$$

Tenglamani $\sin^2 x$ ga nisbatan yechamiz.

$$4\sin^2 x = 1.$$

Tenglamaning ikkala tomonini 4 ga bo'lamiz.

$$\sin^2 x = \frac{1}{4}$$

yoki

$$\sin x = \pm \frac{1}{2}.$$

(2) ga asosan quyidagini yozamiz:

$$\begin{cases} x = (-1)^k \arcsin \frac{1}{2} + \pi \cdot k, k \in \mathbb{Z} \\ x = (-1)^k \arcsin \left(-\frac{1}{2} \right) + \pi \cdot k, k \in \mathbb{Z}. \end{cases}$$

Ma'lumki, $\arcsin \frac{1}{2} = \frac{\pi}{6}$ va $\arcsin \left(-\frac{1}{2} \right) = -\frac{\pi}{6}$.

$$\begin{cases} x = (-1)^k \frac{\pi}{6} + \pi \cdot k, k \in \mathbb{Z} \\ x = (-1)^{k+1} \frac{\pi}{6} + \pi \cdot k, k \in \mathbb{Z}. \end{cases}$$

Bu yechimlarni quyidagi bitta tenglik yordamida yozish ham mumkin:

$$x = \pm \frac{\pi}{6} + \pi k, k \in \mathbb{Z}.$$

Javob: $x = \pm \frac{\pi}{6} + \pi k, k \in \mathbb{Z}$.

3. $\operatorname{tg} x = a$ tenglama.

Har qanday a da $\left(-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right)$ intervalda aniq bitta shunday x mavjudki,

$\operatorname{tg} x = a$ bo'ldi, bu $\operatorname{arctg} a$ dir. Shu sababli


$$\operatorname{tg} x = a$$

tenglama uzunligi π ga teng $\left(-\frac{\pi}{2}; \frac{\pi}{2}\right)$ intervalda aniq bitta ildizga ega.

Tangens - davri π ga teng davriy funksiya bo'lgani uchun tenglamaning qolgan ildizlari topilgan $\operatorname{arctg} a$ ildizdan $\pi n, n \in \mathbb{Z}$ ga farq qiladi, ya'ni

$$x = \operatorname{arctg} a + \pi n, n \in \mathbb{Z} \quad (3)$$

$\operatorname{tg} x = a$ tenglamaning yechimlarini quyidagicha tasvirlash mumkin:



11-misol. $\operatorname{tg}x = \sqrt{3}$ tenglamani yeching.

Yechish: (3) ga ko‘ra

$$x = \operatorname{arctg}\sqrt{3} + \pi n, n \in \mathbb{Z},$$

$$\operatorname{arctg}\sqrt{3} = \frac{\pi}{3} \text{ bo‘lgani uchun quyidagi}$$

$$x = \frac{\pi}{3} + \pi n, n \in \mathbb{Z}$$

yechimlarni keltirib chiqaramiz.

Javob: $x = \frac{\pi}{3} + \pi n, n \in \mathbb{Z}$

12-misol. $\operatorname{tg}x = 5,177$ tenglamani taqribiy yeching .

Yechish: (3) ga ko‘ra

$$x = \operatorname{arctg}5,177 + \pi n, n \in \mathbb{Z}$$

ekani kelib chiqadi.

Kalkulyator yordamida topamiz:

$$\operatorname{arctg}5,177 \approx 1,3800.$$

Demak ,

$$x \approx 1,38 + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

taqribiy yechimlarni keltirib chiqaramiz.

Javob: $x \approx 1,38 + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$

13-misol. $\operatorname{ctg}x = -\sqrt{3}$ tenglamani yeching.

Yechish: Ma’lumki , $\operatorname{ctg}x = \frac{1}{\operatorname{tg}x}.$

Shuning uchun berilgan tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$\operatorname{tg}x = -\frac{1}{\sqrt{3}}.$$

$$(3) \text{ ga ko‘ra} \quad x = \operatorname{arctg}\left(-\frac{1}{\sqrt{3}}\right) + \pi n, n \in \mathbb{Z},$$

Tenglamadagi $\arctg\left(-\frac{1}{\sqrt{3}}\right) = -\frac{\pi}{6}$ almashtiramiz.

$$x = -\frac{\pi}{6} + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$$

yechimlarni keltirib chiqaramiz.

Javob: $x = -\frac{\pi}{6} + \pi n, n \in \mathbb{Z}.$

ABDULLA SHERNING BA'ZI SHE'RLARIDA OBRAZLAR MASALASI

Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna

BuxDU Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti II bosqich magistranti
d.j.xamroyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada serqirra ijodkor Abdulla Sherning bir nechta she’rlari tahlilga tortilgan. She’rlardagi obrazlar, shoirning so‘z qo‘llash mahorati hamda badiiy salohiyati talqin qilingan. Tabiat mavzusidagi aksar she’rlarida qollangan obrazlar qamrovi yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, badiiylik, mahorat, tabiat, so‘z qo‘llashdagi uslub.

Adabiyot va san’at jamiyatni yuksaltiruvchi birlamchi kuch hisoblanadi. Inson dunyoni anglash davomida tabiat hodisalari, turli voqealarga mos hikoyalar yaratgan. Shu tariqa asta-sekin adabiyot inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, tabiat, undagi turli hodisalar asarlar tarkibiga kira boshladi.

Abdulla Sher lirikasi juda keng obrazlar olamiga ega. Bir she’rda uchragan obraz va ramzlar boshqa she’rlarida o‘zgacha ohang kasb etadi. Insonni tafakkur qilishga, she’rdan estetik zavq olishga undaydi. Shoir avgust tabiatini tasvirlaydi:

Xo‘p yetilib ayni dum bergen
Handalakday yumalar quyosh
Hilol-somon yo‘lin supurgan
Qaddi bukik keksa bir farrosh¹.

Oy va quyosh haqida adabiyot paydo bo‘lganidan to bugunga qadar minglab o‘xshatishlar uchraydi. Ammo quyoshning pishgan handalakdek dumalashi-yu hilolning farroshga qiyoislanishi yangicha hodisadir. E’tiborlisi, shoir aynan oy emas, balki hilol so‘zini qo‘llaydi. Boisi, yangi chiqqan oy-hilol qaddi bukilgan farroshga o‘xshaydi. Biroq shu yerda bir ziddiyat kelib chiqadi. Aslida yangi endi ko‘ringan ingichka oyga nisbatan hilol leksemasi qo‘llaniladi. Biroq shoir hilolga “keksa” o‘xshatishini beradi.

Bir lahzada dumalagan quyosh va handalak, bukik hilol va somon yo‘li ko‘z o‘ngimizda gavdalaniб kishiga zavq bag‘ishlaydi. Shoirning so‘z qo‘llash mahoratini quyidagi she’r orqali yanada aniqroq anglaymiz:

“Quyosh surati” she’rida quyosh umuman boshqacha namoyon bo‘ladi:

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-17.

Tuproqqa engashgan qurumli osmon,
 Yaxlagan zoldirdek quyosh g‘ildirak.
 Ko‘zyoshdan namiqqan tunda bedarmon
 Zanglagan yulduzlar karaxt dildirar.¹

Yuqoridagi she’rda handalakka qiyoslangan quyosh ushbu she’rda yaxlagan zoldir (shar, soqqa) ga o‘xshatiladi. “Qurumli osmon” , “yaxlagan zoldirdek quyosh” , “zanglagan yulduz” birikmalari sovuq urush manzarasini namoyon qiladi.

Tabiat mavzusidagi she’rlarni ko‘rishda davom etamiz:

Barglar bir – birin tutar
 Yengamiz deb sho‘x soyni.
 Eng adl terak chertar
 Chirmanda qilib oyni.²

Ushbu she’r quvnoq va o‘ynoqi yetti bo‘g‘inli vaznda bitilgani bilan xalq og‘zaki ijodiga o‘xshab ketadi. Shoir shabada esib turgan tunni tasvirlaydi. Soyning shovqini barglarning shitir – shitir ohangiga qo‘shilib ketgan, teraklar bo‘y cho‘zgan, to‘lin oy yorishib turgan go‘zal tun manzarasi xayolda gavdalanadi.

Shoir quyidagi oq she’rida qishda deraza oynalarida paydo bo‘ladigan naqshlarni qalamga oladi. Xalq tilida Qorbobo chizgan naqshlar deb yuritiladigan chizgilar aslida kondensatsiyalanish hodisasi natijasidir. Bu fizik xossasi shoir mahorat bilan satrlarga joylaydi.

Hatto qahratonda, qor- qirovda ham,
 Boqsin deya insonlar
 Gullar orqali faqat
 Tong yuziga,
 Borliq yuziga
 Gul suratin solar tabiat –
 Derazalar ko‘ziga.³

She’rning yozilish uslubi ham chiroyli. Uni o‘qish davomida biror noqislik sezilmaydi. Bu kabi tasvirlangan she’rlar shoir ijodida talaygina. Uning har bir satrida obrazlar yangicha olam kasb etadi.

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-99

2. Yuqoridagi manba. B-11.

3. Abdulla Sher. Sarbast qo‘shiqlar. – T.: G‘afur G‘ulom, 2010. B-16

Ufqdin za'faron qatra misoli kun to‘kilmishdir,
Shamol shol aylagan shoxlar xazonlarga bukilmishdir.

Shivir etgay na bir yaproq, ne hojat ham shivirlashdir
Uzib o‘z umridin umid, zimistonga tikilmishdir.¹

Yoki:

Ruhni ezar qo‘rg‘oshin osmon,
Pitra bo‘lib shatirlar yomg‘ir.
Naq chakkadan qisar beomon
Kuz kuni deb atalgan ombir.²

Ko‘rilgan ikki namunada ham kuz fasli qalamga olingan. Kuz faslida sodir bo‘ladigan tabiat hodisalarini shoir mahorat bilan aks ettiradi. Kuzdag'i tabiat injiliklari, sovuq tushishi insonga biroz noqulaylik tug‘dirishi tabiiy. Shoir shu ruhiy holatni ifodalashga urinadi. Oddiygina yaproqlar xazonga aylanib to‘kilishi va qishga tayyorlanishi , qora bulut osmonni qoplab yomg‘ir yog‘ishini “uzib o‘z umridin umid” , “zimistonga tikilmishdir” , “qo‘rg‘oshin osmon” , “shatirlar yomg‘ir” , “ombir” kabi so‘z va so‘z birikmalari bilan ifodalaydi. Uning she’rlarini o‘qish davomida tabiatda uchraydigan har bir narsani sinchiklab kuzatib keyin qalamga olganiga guvoh bo‘lamiz;

Bahor keldi. Ariqchalar jildirab oqdi,
Bulutlarga ko‘chib o‘tdi tog‘lar haybati.
Jala quydi. Tindi. Quyosh jilmayib boqdi.
Yel yugurdi. Gullar kului. Qushlar sayradi.³

Shoirning ushbu she’rida bahor kelib tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlar juda ixcham va o‘ynoqi tarzda tasvirlanadi. Ushbu to‘rt misra inson xayolida bahorning betakror nafosatini chizibgina qolmay, insonga ajib quvonchni taqdim etadi.

Umuman olganda, Abdulla Sher ijodini kuzatish jarayonida uning she’rlarida tabiat hodisalari, jismlari bilan bog‘liq talaygina she’rlari borligiga guvoh bo‘ldik. U she’rlarning ba’zilari aynan tabiat haqida emas, balki inson ruhiyatini ko‘rsatish uchun vosita vazifasini bajargan. Masalan yulduz bilan bog‘liq she’rlarini kuzatamiz:

Yulduzlarni to‘zg‘itib oydek,
Osmonlarni ko‘mmadim nurga.

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-99

2. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-117.

3. Yuqoridagi manba. B-52.

O‘z o‘rnini berguvchi soydek
Bosh jurmadim ayqirgan Sirga.¹

Yoki:

Yulduzlar yashaydi
G‘uj bo‘lib, g‘ujg‘on bo‘lib.
Yulduzlar ashaydi bir osmon bo‘lib.
Bir-birini suyab,
Bir-birini suyub,
Baravar qiqirlab kularlar –
Har kuni.
Lekin
Yakka-yakka kularlar –
Bir kuni odamlar kabi.
O‘sanda bilinadi yorug‘ligi ularning,
O‘sanda bilinadi qoraligi tunlarning...
Yulduzlar yashaydi odamlar kabi.²

Haqparvar shoirning ko‘rib o‘tilgan barcha she’rlaridaadolat, haqiqat, odamiylik, halollik, yurtparvarlik xislatlari kuyga solinadi, tabiat bilan bog‘liq holda aks ettiriladi.

Nogoh yulduz qo‘ndi ko‘zimga bir kun,
So‘ng bir kun yulduzdek yarq etdi so‘zim.
Shu-shu men kimgadir nur sochmoq uchun
Bir umr unutdim o‘zimni-o‘zim.³

Shoir yashnagan, hayotga umid, maqsadga ishonch nigohi ila tikilganini “ko‘ziga yulduz qo‘nishi” jumlesi orqali ko‘rsatadi. Badiiy adabiyotda yulduz obrazi aksar hollarda ijobjiy obraz sifatida talqin etiladi. “Hali ham izlayman.Bilaman Yerda, Shu cho‘llarda mening yulduzim!” (Asqad Muxtor “Yulduzim”), “Yashnardi bir yulduz xuddi sensimon, Xuddi senday uzoq va senday yorqin” (Zulfiya “ Yulduz”), “Gar tug‘ilsa biror go‘dak, derlar: “Ortdi yulduz soni,Yana bitta mayoq bilan boyib qoldi yurt osmoni” (Xayriddin Saloh “Yulduzlar afsonasi”), “Ko‘kka otding-yo‘q bo‘l deding-Yulduz bo‘ldim” (Usmon Azim “O‘lgin deding...”) kabi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shoir avvlo har bir she’rini yaratishdan oldin uni mushohada etadi, aql tarozisida o‘lchaydi va haqiqatdan uzilmagan holda akslantiradi. Ko‘rib o‘tgan she’rlarimizning aksari tabiat mavzusida edi. Shoир tabiatni go‘yo ona anglaydi, o‘zini shu ona bag‘riga talpinayotgan go‘dak siy whole ko‘radi.

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. – T.: Adabiyot va san’at, 1987. B-92.

2. Yuqoridagi manba. B-60.

3. Yuqoridagi manba. B-31.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Qadimgi kuy. - T.: Adabiyot va san'at, 1987.
2. Abdulla Sher. Sarbast qo'shiqlar. - T.: G'afur G'ulom, 2010.

KARTOSHKA VA SABZAVOT EKINLARIDAGI GULLI PARAZIT BEGONA O'TLARGA QARSHI GERBITSIDLARNI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

B.Nasirov

Toshkent davlat agrar universiteti professori

J.Eshonqulov

